

Ingliz tilida aralash uyushiq kesimlar tipologiyasi.

Reja:

I bob

Hozirgi zamon tilshunosligida uyushiq boʻlaklarni oʻrganish

1.1 Ingliz va oʻzbek tillarida aralash uyushiq kesimlar tipologiyasi.

1.2 Kesim turlari

Kesimi to be+ot bilan ifodalangan uyushiq kesimli sodda gaplarning komponent tahlili

II bob

Kesimi modal feʼl va infinitiv bilan ifadalangan uyushiq kesimlarning oʻzbek tilida berilishi

Kesimi uyushiq sodda feʼl bilan ifodalangan uyushiq kesimli sodda gaplarning komponent tahlili

2.1 Oʻzbek tilida kesimi modal maʼnoli soʻz va infinitiv bilan ifodalangan uyushiq kesimlarning komponent tahlili

III bob Xulosa

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
Birinchi bob. O‘zbek tilida uyushiq bo‘laklar	9
1.1. O‘zbek tilida uyushiq bo‘laklar to‘g‘risida ma’lumot	9
1.2 O‘zbek tilida kesimi modal ma’noli so‘z va infinitiv bilan ifodalangan uyushiq kesimlarning komponent tahlili.....	13
Ikkinchi bob. Ingliz va o‘zbek tillarida aralash uyushiq kesimlar tipologiyasi	19
2.1. Ingliz va o‘zbek tillarida aralash uyushiq kesimlar tipologik nazariyasi.....	29
2.2. Kesimi uyushiq sodda fe’l bilan ifodalangan uyushiq kesimli sodda gaplarning komponent tahlili.....	31
2.3. Kesimi aralash fe’llar bilan ifodalangan uyushiq kesimli sodda gaplarning komponent tahlili.....	37
2.4. Kesimi uyushiq modal fe’l + infinitiv bilan ifodalangan uyushiq kesimli sodda gaplarning komponent tahlili	47
2.5. Kesimi to be + ot bilan ifodalangan sodda gaplarning komponent tahlili	53
XULOSA.....	58
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	61

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning ta'kidlashicha, "Ta'lim va tarbiya sohasidagi islohotlar boshlangan dastlabki yillarda men jahon tajribasi va hayotda o'zini ko'p bor oqlagan haqiqatdan kelib chiqib, agar bu maqsadlarimizni muvaffaqiyatli amalga oshirsak, tez orada hayotimizda ijobiy ma'nodagi "portlash effekti"ga, ya'ni yangi ta'lim modelining kuchli samarasiga erishamiz.

Darhaqiqat, istiqlol davrida barpo etilgan, barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan akademik litsey va kasb –hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan, zamonaviy kasb-hunar va ilm ma'rifat sirlarini o'rganayotgan, hozirdanoq ikki-uch tilda bimalol gaplasha oladigan ming-minglab o'quvchilar katta hayotga kirib kelayotgan, o'z iste'dodi va salohiyatini yorqin nomoyon etayotgan yoki kadrlarimiz misolida ana shunday orzu intilishlarimiz bugunning o'zida o'z hosilini berayotganing guvohi bo'lmoqdamiz [3,61]. Zero "har kuni, har soatda fidoiy bo'lish, o'zini tomchi, zarrama-zarra buyuk maqsadlar sari charchamay,toliqmay tinimsiz safarbar etib borish, bu fazilatni doimiy,kundalik faoliyat mezoniga aylantirish-haqiqiyqahramonlik aslida mana shu"dir [4,165].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov jamiyat rivojlanishining milliy modeli asoslarini belgilashda "Bilimdon, professional jihatdan savodli hamda g'ayrat shijoatli shaxslarni, o'z mamlakatining chinakam vatanparvarlarini tarbiyalay oladigan, ularni buyuk milliy madaniyatning ulkan ma'naviy merosi bilan boyita oladigan, jahon fani va madaniyati durdonalaridan bahramand eta oladigan mamlakatgina, millatgina buyuk kelajakga erishishi mumkinligini yoddan chiqarmaslik lozim"ligini ta'kidlaydi [2,260].

Yangi avlod tarbiyalashning mamlakat strategiyasida o'z ifodasini topgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi xuddi shu ijtimoiy tafakkur vaziyatida shakllandi: "...yuksak umumiy kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal qilishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir" [6,34].

Shuningdek, I. A. Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasida (29 avgust, 1997) "Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rganishning milliy asosdagi jadallashtirilgan metodikasini tayyorlashni tezlashtirishimiz kerak"ligini ta'kidlab o'tgan [5,331].

Nihoyat, respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng xorijiy davlatlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatish yana ham rivojlandi. Respublikamizning viloyatlari, ko'p shahar va tumanlari chet el sarmoyadorlari bilan birgalikda juda ko'plab qo'shma korxonalar ochildi. Bulardan tashqari yurtimizda ko'pgina xalqaro musobaqalarning o'tkazilishi, xalqaro tashkilotlar, vakolatxonalarning rasmiy faoliyat olib borayotgani mamlakatimizda kelayotgan sayyohlarning soni kundan-kunga ortib borayotgani xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirmoqda.

Prezidentimiz I.A. Karimovning 2012-yil 10-dekbrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida N PQ-1875 Qarori"ga muvofiq chet tillarni o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratildi [1,6].

"Hozirgi davrda chet tilini o'rganish va o'qitish katta e'tibor kasb etmoqda. Bu, albatta, bejiz emas. Bugungi kunda jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashga intilayotgan davlatimiz uchun chet tillarni mukammal bilishning naqadar muhimligi mubolag'a emas, zero xalqimiz o'zining buyuk kelajagi chet ellik sheriklar bilan o'zaro bog'liq ekanini juda yaxshi biladi. O'zbekiston jamiyatining milliy xususiyatlariga asoslangan va insoniyat qadr qimmatiga mos keluvchi, chet tilini tezroq o'rganish metodini ishlab chiqishimiz kerak" [2,86].

Chet tillarni o'rganish hamda o'rgatishga berilgan bunday katta e'tibor ingliz tili sohasida yangidan-yangi tadqiqotlarni ochilishiga sabab bo'lmoqda. Ma'lumki, kishilar o'rtasidagi aloqaning eng muhim vositasi, fikrni boshqalarga yetkazuvchi qurol bu tildir.

Ushbu bitiruv malakaviy ish ingliz tilida aralash uyushiq kesimlarning tipologik jihatdan o'rganish, ularning yadro komponentlarini o'rganish va o'zbek tili bilan taqqoslagan holda ko'rib chiqadi.

Mavzuning dolzarbligi. Ushbu mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, ayni vaqtda bizga zarur bo'lgan tillarni o'rganishda qiyosiy tipologik jarayon bizga ancha yengillik yaratadi deb o'ylayman. Zero gap qurilmasida ham, "kesim" asosiy birlik hisoblanadi. Ushbu ishda esa biz ko'p ishlatiladigan kesimlarning uyushib kelgan holatlari, ularning ifodalanish usullari ikki yilda nazariy va amaliy jihatdan o'rganiladi. Ingliz tili bo'yicha mutaxassis bo'lmoqchi bo'lgan bo'lajak filolog talabalar uchun grammatikaga yanada chuqurroq kirib borish va o'rganish juda muhimdir.

Muammoning o'rganilish darajasi. Bizga ma'lumki, shu davrga qadar ko'pgina o'zbek va ingliz tillarida olimlarimiz gapning uyushiq bo'laklari haqida ko'plab fikrlarni aytib o'tishgan va bu mavzu yuzasida ko'plab turli ilmiy izlanishlar olib borishgan. Jumladan, V. L. Kaushanskaya va boshq. "The English Grammar" kitobida [45,229], "O'zbek tili grammatikasi II tom" [32,165] va boshqa ko'plab manbalarida faqatgina umumiy ma'lumotlar berib o'tilgan. Bundan tashqari B. A. Yorov o'zining nomzodlik dissertatsiyasida [31,30] "Uyushiq bo'laklar ancha uzoq tarixga ega, albatta, o'tmishda uyushiq bo'laklar haqida keng, mukammal ma'lumotlar bo'lgan, uyushiq bo'laklarning u yoki bu xususiyati haqida qisqacha fikrlar bayon etilgan".

Ammo har bir uyushib kelayotgan bo'laklar alohida tipologik jihatdan o'rganilib kelinish holatlari kamdan-kam uchraydi. Ya'ni hozirgi zamon tilshunosligida til obyektlari va turlicha qatlamlar qiyosiy tipologik jihatdan o'rganilmagan. Zero tilni boshqa tillar bilan qiyoslab, taqqoslab o'rganish o'rganilayotgan tillarning eng muhim qirralarini ochib berishga yordam berdi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Ingliz tilida uyushiq gaplarning turlari haqida ingliz tili o'rganuvchilariga ma'lumot berish;

-Ingliz tili o'rganuvchilari tomonidan yuzaga keladigan uyushiq gaplarni tarjima qilishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishni maqsad qilib olgan. Bundan

tashqari ingliz tilidagi uyushiq gaplarda aralash kesimlarning ishlatilishi, ularning turlari, ishlatilish holatlari, leksik-grammatik jihatdan ifodalanishi, modal fe'llarning, infinitivli birikmalarning yoki gerundiy orqali ifodilangan aralash kesimlarning yoki oddiygina "to be" fe'li va sifatdash orqali ifodilangan va yasaladigan aralash kesimli uyushiq gaplarni turkumlashtirish, ular o'rtasidagi o'zaro farqlar va o'xshashliklarni tahlil qilish, o'rganish, ularning yunksion modellarini yaratish va tahlil qilish jarayonida ekspriment usulidan foydalanish va ularni misollar orqali tushuntirib ko'rsatib berish maqsadidir.

Shuningdek uyushiq gaplar va aralash kesimli uyushiq gaplarni o'zbek tilidagi uyushiq gaplar bilan qiyoslab o'rganish, ular o'rtasidagi farqli jihatlar yoki o'xshashliklarni solishtirish, o'zbek tilida modal fe'llarning yo'qligi va modallikni ko'rsatuvchi "*kerak, lozim, shart, zarur, mumkin*" kabi so'zlarning fe'l bilan birikib kelib ingliz tilidagi o'zbek tilidagi modal fe'llar bilan sinonim bo'lib kela olishi, o'zbek tilida gerundiy va sifatdash I va II o'rtasidagi farqlarni ham o'rganishdir.

Qo'shimcha qilib shuni ayta olamanki, ushbu ishda har ikkala tilda ya'ni ingliz va o'zbek tillarida uchraydigan kesimi uyushgan gaplar tipologik jihatdan o'rganilish maqsad qilib olingan. Ularning vazifalari shundan iboratki, ular gaplarda turli xil shakllarda nomoyon bo'lib, turli fe'l kesimlar bilan ifodalanib keladi. Ularning o'zbek tilida ham berilishi deyarli bir xil kechadi. Ammo o'zbek tilida bog'lama fe'llarning alohida mavjud emasligi, ularning tarjimasida seziladi. Shunday ekan ishimda kesimlarning sodda fe'l kesim va aralash fe'l kesimlar bilan ifodalanib, bir gapda bir necha kesimlarning uyushib kelgan holatlarini, ularning sintaktik munosabatlarini, yunksion va komponent modellar yordamida tahlil qilishni maqsad qilib olganman. Gaplarni bunday tarzda kompleks tahlil qilish hozirgacha to'liqligacha tahlil qilinmagan, sintaktik jumboqlarining yechimlari topilmagan. Shuningdek ularning morfologik xususiyatlarini aniqlash hozirda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Vazifalari. – Ikki tildagi uyushiq gaplarni solishtirish;

-ingliz tili o'rganuvchilari o'rtasida kelib chiqadigan qiyinchiliklarni bartaraf etish;

-o'zbek va ingliz tili grammatikalari o'rtasida kelib chiqadigan farqlarni ilmiy asoslab berish;

-fe'lning shaxssiz shakllari ustidan yanada ko'proq ishlash;

-gaplarni tahlil qilish;

-uyushiq kesimlarning komponentlarini ko'rib chiqish;

-predikativlik hodisasini gaplarda kuzatish;

-uyushiq gaplar to'g'risida turli tilshunos olimlarning nazariya va qarashlarini ko'rib chiqish va tahlil qilish;

-badiiy asarlardan olingan misollar yordamida gaplarni to'liq tahlil qilib ko'rish;

-modallik tushunchasi haqida va ularning aralash kesim vazifasida uyushiq gaplarda ishlatilishini kuzatish va ular haqida ma'lumot berish.

Bitiruv malakaviy ishning obyekti va predmeti. Bitiruv malakaviy ishning asosiy obyekti bu tilshunoslik sohasida o'rganilib kelinayotgan tilning sintaktik sathlari va ularning grammatik jihatdan qurilish yoki strukturalarini o'rganishdir. Buning asosiy predmeti gapning kesim o'rnida keluvchi uyushiq bo'laklarning sintaktik birliklar sifatida sintaksis qismida o'rganilsa, ularning aloqalari morfologik jihatdan o'rganiladi.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik va nazariy asoslari. Bitiruv malakaviy ishning metodologik asoslari hamda nazariy asoslari shundan iboratki, bunda kesimi uyushgan gaplar sintaktik modelga solingan konstruksiya shakliga solingan holda o'rganiladi. Gapda kelayotgan har bir uyushiq kesimlar soni behisob bo'lsada, ular ma'lum modellar asosida metodologik va nazariy jihatdan o'rganilib chiqiladi. Shu sababli ham har bir grammatik birlik ham semantik, ham grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan bo'lishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishda foydalanilgan metodlari. Bu kabi masalalarni yechishda lisoniy metodlardan, komponentlarga va sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda transformatsiya metodidan, eksperimentdan foydalaniladi. Komponentlarga

ajratib tahlil qilish sintagmatik asosda olib borilsa, sintaksemalarga ajratib tahlil qilish paradigmatic asosda olib boriladi. Biz bu ishimizda uyushib kelgan kesimlarni aniqlashda tushurib qoldirish, transformatsiya metodidan foydalanishni ma'qul deb topdim.

Himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlar. Ushbu ishda himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlar quyidagilardan iborat bo'lib, avvalo har ikkala tilda berilayotgan kesimi uyushib kelayotgan gaplarning sodda va aralash uyushiq kesimlar bilan ifodalanishinig sintaktik munosabatlarini o'rganishdir.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, avval ham aytib o'tganimizdek, shu davrgacha uyushiq bo'laklari haqida turli g'oyalar yoritilib kelingan ammo kesimi uyushgan gaplarning sintaktik munosabatlari yoki kesimlarning sodda fe'l yoki aralash fe'llar bilan ifodalanishishi haqida juda kam ma'lumotlar bor. Ushbu ishda har ikkala tillardagi kesimi uyushgan gaplar o'zaro qiyoslanib, ularning zamonaviy metod usullari orqali yoritiladi.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur ishda ingliz va o'zbek tillarida gap strukturasidagi elementlar sintaktik birliklarning qiyosiy tipologik jihatdan yoritiladi. Bajarilgan tahlil, ya'ni sintaktik aloqalarni aniqlash komponent va sintaksema tarkibini aniqlab, tipologiyaning muhim bir aspekti hisoblanib, u sintaktik tipologiyani hamda, sodda gaplarning umumiy nazariyasini yanada boyitishga, kesim turlarinig turli xil ko'rinishiga ega ekanligi bilan o'zining muayyan hissasini qo'shadi.

Ishdagi tahlil natijalari, nazariy va amaliy grammatikalar, qiyosiy tipologik, sintaksis bo'yicha maxsus kurs sifatida yuqori bosqich talabalari uchun qo'llanmalar tuzishda foydalanish va tadqiqot materiallari bo'yicha maxsus seminarlarda biroz bo'lsada foydalanish mumkin deb o'ylayman.

Bitiruv malakaviy ishning asosiy strukturasi. Bitiruv malakaviy ishning asosiy strukturasi shundan iboratki: u kirish, asosiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 65 betni tashkil etadi.

I BOB. O‘ZBEK TILIDA UYUSHIQ BO‘LAKLAR

1.1. O‘zbek tilida uyushiq bo‘laklar to‘g‘risida ma’lumot

Demak uyushiq kesimlar haqida gapirishdan oldin uyushiq bo‘laklar o‘zi nima degan savolga javob berib o‘tsak maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Gapda ikki va undan ortiq bir xil gap bo‘laklari ishlatilishi mumkin. Masalan: *“Eshilib to‘lg‘onib ingranadi kuy”* gapida *eshilib*, *to‘lg‘onib* so‘zlari bir xil hokim bo‘lakka tobe bog‘lanadi va har ikkisi bir xil so‘roqqa qanday so‘rog‘iga javob bo‘ladi. *“He gave her a book and his notebook”* bu gapda esa *a book* va *his notebook* so‘zlari uyushib kelyapti. Ular bir xil gap bo‘lagi vazifasida keladi va bir xil gap bo‘lagi bilan bog‘lanadi. Ular sanash ohangi yordamida bog‘lanadi.

“Bir umumiy bo‘lakka tobe bog‘langan bir xil sintaktik vazifa bajaradigan o‘zoro teng bog‘lovchilar va sanash ohangi yordamida bog‘lanadigan bir xil so‘roqqa javob bo‘ladigan ikki yoki undan ortiq bo‘laklarga uyushgan bo‘lak deyiladi” [32,170].

Uyushiq bo‘laklar o‘zoro teng bog‘lovchilar bog‘lovchi vazifasidagi bo‘g‘lovchi so‘zlar va sanash ohangi bilan bog‘lanadi. Gapda turli gap bo‘laklari uyushib kelishi mumkin.

Ingliz tili grammatikalarida ham o'zbek tili grammatikalarida ham gaplarda uyushiq kesim o'rnida aralash uyushiq kesimlar ham keladi. Ularni biz quyidagicha tasniflashimiz mumkin. Ya'ni:

modal fe'llar + infinitiv;

kesimi "to be" + ot bilan ifodalangan uyushiq gaplar;

kesimi sodda fe'l + modal fe'l + infinitiv uyushiq kesimlar

va hokozo.

Har bir tilda mavjud bo‘lgani kabi, o‘zbek tilida ham bir sodda gapda bir necha bo‘laklarning uyushib kelgan holatlari kuzatiladi. Va bu bir qancha tarixga ega. Masalan H G‘oziyev o‘zining 1938-yilda chop etilgan *“Грамматика”* (sintaksis) kitobida uyushiq bo‘laklar haqida quyidagilarni yozadi:

“Gap tuzilishida bir ega, bir kesim va bir xil ergash bo‘laklar bittadangina kelavermaydi. Bir turli ega yoki ergash bo‘lakning bir nechta ham kelishi mumkin.

Ba'zi gaplarda bir turli bo'laklar uyushib keladilar. Uyushiq bo'lakli gaplarning sodda gaplardan farqi, asosan uch holatda ko'rinadi.

1. Bir xil vazifa va unga mos bir xil formadagi bir necha bo'lak bo'ladi.
2. Uyushuvchi bo'laklarni o'zoro bog'lovchi ko'makchi so'z, ko'makchilar bo'ladi.
3. Uyushiq bo'lakli gapdagi uyushuvchi bo'laklar asosan bir xil urg'u bilan aytilib, o'zoro bog'lanadi" [33,81].

Uyushiq bo'lakli gapda har bir gap bo'lagi uyushib kelishi mumkin. H. G'oziyevning 1941 yilda yana qayta nashr qilingan darsligida unga yangilik kiritadi, ya'ni uyushiq bo'laklar turli so'z turkumlaridan ham bo'ladi deb quyidagi misolni keltirib o'tadi [31,30].

"O'rta bo'yli, mukchaygan chol uyga kirdi" [26,356]. Bu misolda "o'rta bo'yli" "mukchaygan" uyushiq aniqlovchi bo'lib, uning biri sifat ikkinchisi esa sifatdosh bilan ifodalangan deb to'g'ri talqin qilib berdi.

A. G'. G'ulomov 1940 yilda Toshkentda chop etilgan "O'zbek tili grammatikasi" 2 qism "sintaksis" (sirtqi pedagogika bilim yurti talabalari uchun) darsligida uyushiq bo'laklar haqida quyidagi fikrlarni bayon qiladi:

1. Uyushiq bo'laklarning umumiy aniqlovchisi bo'ladi.
2. Bog'lovchilar qo'llanilishiga ko'ra ikkiga bo'linadi:
 - a) Yakka bog'lovchilar
 - b) takror bog'lovchilar
3. Umumlashruruvchi so'z jinsni, uyushiq bo'laklar shu jinsga kiruvchi turni ifodalaydi. 1955 yilda u o'zining "Sodda gap" kitobida bu masala yuzasidan qo'shimchalar kiritdi.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi huzuridagi Til va adabiyot instituti tomonidan 1966 yilda nashr etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (sintaksis) kitobida uyushiq bo'laklar haqida hozirgacha (kitob nashr qilinguncha) ma'lum bo'lgan narrsalaridan tashqari, anchagina yangi fikrlar ham qayd etilgan. 1930 yillarda esa H. G'oziyev "Umumlashtiruvchi bo'lak" degan atamani qo'llagan edi. 1950 yilga kelib uyushiq bo'lakni tashkil qiluvchi har bir bo'lakni "uyushiq bo'lak

a'zolari", "uyushqlik zanjirini tashkil qiluvchi bo'lak" degan terminlar ishlatila boshladi. Bu kitobda "komponent" so'zi qo'llanildi [31,48-49].

Endi har birini alohida misollar yordamida o'zbek va ingliz tillaridagi misollar bilan taqqoslab o'tamiz.

Ingliz tili grammatikalarida gaplarda uyushiq kesim o'rnida modal fe'l + infinitiv bilan birikib kelgan unsurlarni qo'shma fe'l, modal kesim deb nomlaydi.

Mazkur turdagi kesim modallik kategoriyasini ifodalanishining bir turi hisoblanadi. Modallik tushuncha kategoriya bo'lib, so'zlovchi aytadigan fikrga subyektiv munosabati, aytiladigan fikrning real voqelikka bo'lgan munosabatidir. [10,237].

Ingliz tilida modallik kategoriyasi grammatik qatlamda o'rganilib chiqilganda, modallik kategoriyasi ifodalanishiga ko'ra to'rt usulga bo'linadi:

1) Morfologik usul yordamida.

Bu usulda har qanday gap ma'lum bir mayl kategoriyasi asosida ro'yobga chiqariladi yoki ifodalanadigan gaplarning barchasi modallikning morfologik usulidir.

2) Sintaktik usul yordamida.

Ingliz tilida shunday qurilmalar mavjudki, ish harakat bajarilishining zaruriyatini ehtimolligini va shartligini ifodalaydi. (It is important for him to study). Sintaktik usul shu kabi qurilmalar yordamida ifodalanadi.

3) Leksik usul yordamida.

Bu usul modal so'zlar: certainly; of course; surely; by all means orqali ifodalanadi.

4) Leksik -grammatik usul yordamida.

Ushbu usul modal fe'llarning fe'lning infinitiv shakli bilan kelishi orqali ifodalanadi.

Modal fe'llarning leksik usuli ma'nosiga qaraganimizda, ular ham modallikning zaruriyat, imkoniyat, mumkinlik, xohish-istak ma'no ottenkalarini ifodalab, gaplarda tarkibli modal fe'lli uyushiq kesimning bir qismini ifodalaydi. Modal fe'llar masalasini aniqlashda ingliz tili nazariy va amaliy grammatikalarida

can, could, may, might, must, will, shall, would, should, ought to larni ham modal fe'llar guruhiga kiritiladi [15,256].

Umuman olganda, modal fe'llar gapda yaxlit o'zlari bir sintaktik funktsiyani bajarmaydi. Ular har doim infinitiv bilan birikib kelib, o'zlarining modal ma'nolarini infinitiv bilan birgalikda ifodalab, gapda kesim vazifasida keladi.

1. *Jim must sweep and clean the carpet* [27,371].

2. *Sam can run and jump high* [47, 143].

3. *The ambulance will come and take him to the madhouse.*

Mazkur misollar o'rtasidagi sintaktik aloqalar bir xil.

Ularning differensial sintaktik va morfologik belgilari ham bir xil.

— — —

O'zbek tilida modallik kategoriyasi o'z ifodalanishiga ko'ra ikki turga ajratish mumkin.

1) Morfologik;

2) Leksik;

O'zbek tilida modal fe'llarning yo'qligi barcha grammatikalarda e'tirof etilgan bo'lsada, modal so'zlar deb *kerak, lozim, zarur, mumkin, shart* kabi so'zlar gapda kesim yoki kesimning bir qismi bo'lib kelishi tan olingan ayniqsa Xojiyev o'zining "Fe'l" nomli monografiyasida fe'lning imkonlik va imkonsizlik kategoriyasi haqida fikr yuritib, *yoza oldi-yoza olmadi* kabi shakldagi "ol" ko'makchi fe'li so'zlovchining harakatga bo'lgan munosabatini, harakatni bajara olish imkoni ma'nosini ya'ni modal ma'noni bildiradi deb ta'kidlanadi. Ayrim tadqiqotchilar "o'qish kerak" "o'qishim kerak" kabi birikmalarni tarkibli kesim turiga kiritib, ularni "mustaqil so'z + predikativ +modal so'zlar" deb ta'riflaydi. [22, 40-42].

O'zbekiston fanlar akademiyasi grammatikasida bunday birikmalarni tarkibli ot-kesimning bir turi ya'ni ish oti (+ egalik affiksi) + *kerak, zarur, lozim, mumkin, shart* kabi so'zlar yordamida ifodalanadi deb izohlaydi [32,177]. Lekin

“yoza oladi”, “o‘qishi kerak” kabilarni haqiqatga yaqinroq qilib G‘ulomov A., Asqarova M.lar tarkibli fe‘l kesim turiga kiritadi [34,256].

1.2. O‘zbek tilida kesimi modal ma’noli so‘z va infinitiv bilan ifodalangan uyushiq kesimlarning komponent tahlili

Yuqoridagi bo‘limlarda bir necha bor ta’kidlab o‘tganimizdek, ingliz tilida modal fe‘llar deb talqin etiluvchi unsurlar o‘zbek tilida modal ma’noli so‘zlar deya ataladi. Modal ma’noli so‘zlar o‘zlari yaxlit holda kelmasdan, ular ravishdosh, sifatdosh va bog‘lama fe‘llar bilan birga qo‘llanilib gapda kesim vazifasida keladi. Ammo modal so‘zlar bundan mustasno. Chunki modal so‘zlar gapda kirish so‘z, butun bir gap vazifasida yoki ba’zan gap bo‘lagi tarzida nomoyon bo‘lishi mumkin. [30, 117].

Endi ingliz tilidagi kabi o‘zbek tilida ham kesimi modal ma’noli so‘z va infinitiv bilan ifodalangan uyushiq kesimlarni komponentlarga ajratib tahlil qilib o‘tamiz.

Badiiy asarlardan yig‘ilgan misollarimizda keltirilgan kesimni ifodalovchi modal ma’noli so‘zlar va infinitivni taqqoslasak, ularda birinchi farq gapdagi joylashuvidir. Barchamizga ma’lumki, ingliz tilida kesim birdan egadan keyin keladi, o‘zbek tilida esa kesimni ifodalovchi komponentlar gapning oxirida keladi.

- 1) *Biz uni uylantirishimiz, uyli-joyli qilishimiz kerak* [8,71].
- 2) *Azizjonna kira olardi, na keta olardi* [8,63].
- 3) *Zuhraga u bugundan boshlab hech narsa o‘rgatmasligi, nasihat qilmasligi kerak* [65,50].

Endi har bir gapni alohida olib, komponentlarga ajratib, ularning morfologik ifodalanishini ko‘rib o‘tamiz. Bularning hammasi gap tarkibidagi sintaktik aloqalarni e’tiborga olgan holda kuzatiladi. Uyushiq bo‘laklarning sintaktik komponentlarini aniqlash uchun eksperiment metodi qo‘llaniladi. Gap tuzilishida sintaktik aloqalar turini aniqlashda modellashtirish metodi qo‘llaniladi. Bu modelning yuksion va komponent qurilishidir.


“Biz uni uylantirishimiz, uyli joyli qilishimiz kerak” gapida uylantirishimiz, uyli-joyli qilishimiz kerak kesimlari uyushib kelmoqda. Bunda mavjud modal ma’noli so‘z *“kerak”* har ikkala infinitivga barobar tegishlidir. Buni quyida transformatsiya, ya’ni tushurib qoldirish metodi orqali ko‘rib o‘tamiz.

Biz ... uylantirishimiz... kerak,...biz.....uyli-joyli qilishimiz kerak.

Ushbu gapning yunksion modelini quyidagicha ifodalaymiz.

Biz uni uylantirishimiz, uyli-joyli qilishimiz kerak.

1-chizma.




Shu o‘rinda shuni qo‘shimcha qilib o‘tishni joiz deb topdimki:

_____ Har bir shtrix chizig‘i mustaqil sintaktik birlikni ifodalaydi.



Bu belgi esa uyushib kelgan gap bo‘lagini o‘zaro koordinativ sintaktik aloqadir.



Ikkala chiziq har ikkala tomondan ko‘rsatkichlar sintaktik yadro predikativga aloqadir.

Yuqorida va quyida endi beriladigan misollarimizda ham bu belgilardan foydalanamiz va ularning komponent tarkibini quyidagicha berishimiz mumkin.

NP1 – yadro predikativlik I;

NP2 – yadro predikativlik II;

IH, IIH – uyushiq bo‘laklar;

S- ot;

Pn – olmosh;

Vf – fe’l va hokozo.

Modeldan ko‘rinib turibdiki, bu yerda ega ya’ni yadro predikativ I o‘rnida kelgan biz olmoshiga kesim o‘rnida, yadro predikativ II o‘rnida uyushib kelayotgan komponentlarni ifodalayotgan infinitiv va modal ma’noli so‘zlar

subordinativ ya'ni tobe aloqada, uyushiq kesimlar esa koordinativ ya'ni teng aloqada bog'lanishgan. Biz ularni Muxin ta'limoti asosida yadro predikativlik aloqada deb atashimiz mumkin. Bundan tashqari ushbu gapdagi "uni" sintaktik birligi "uylantirishimiz" ga tegishli bo'lsa "uyli-joyli" sintaktik birligi "qilishimiz kerak" bilan bog'liqdir. Bu bog'liklikni ajralmas birikma deb atash mumkin.

Endi ushbu gapning morfologik ifodalanishini uning komponent tahlilida ko'rib o'tamiz.

Biz uni uylantirishimiz, uyli-joyli qilishimiz kerak.


Navbatdagi gapimiz "Azizjon uyga na kira olardi va na keta olardi"ni tahlil qiladigan bo'lsak, bu yerda modallikni ifodalovchi so'z "ol" ko'makchi fe'lidir. Ushbu fe'l ravishdoshning -a- affiksi orqali yasalgan turiga birikib, harakatni bajarishga qodirlik ma'nosini ifodalaydi. Bu yerda uyushib kelayotgan komponentlarning har birida, ravishdosh va ko'makchi fe'llar mavjud. Shunday bo'lsada, biz bu gapni ekspriment metodga qo'yib chiqamiz.

Azizjon uyga na kira olardi,....Azizjon na keta olardi;

Ko'rinib turganidek, yadro predikativ I o'rnida kelayotgan "Azizjon" komponenti "kira olardi", "keta olardi" uyushiq unsurlari bilan bir xil aloqada, ya'ni yadro predikativ aloqa ekanligi ko'rinib turibdi.

Ushbu gapning yunksion modelida ushbu aloqalar yaqqol ko'zga tashlanadi:

2-chizma.



Modelda ko'rsatilgan raqamlar har bir sintaktik birlikning gapdagi o'rnini ifodalab kelmoqda. Endi ushbu gapning ham morfologik ifodalanishini yoritish uchun komponent modelini berib o'tamiz.

Azizjon uyga na kira olardi, na keta olardi.

Misolimizda sintaktik birliklarning ifodalanishi ya'ni morfologik ifodalanishi, avvalgi boblarda aytib o'tilgan belgilar bilan berilgan.


Galdagi gapimizda ham yuqorida aytib o'tilgan aloqalar mavjud ya'ni *“Zuhraga u bugundan boshlab hech narsa o'rgatmasligi, nasihat qilmasligi kerak”* gapida mavjud uyushiq birliklar o'zaro teng bog'lanib, koordinativ aloqani vujudga keltirgan bo'lsa, yadro predikativ I ya'ni ega o'rnida kelgan *“U”* sintaktik birligiga nisbatan yadro predikativlik aloqadadir.

...U.... o'rgatmasligi,...u..... nasihat qilmasligi..... kerak,

...U...o'rgatmasligi....kerak;...u...nasihat...qilmasligi kerak.

Bu yerdagi qolgan sintaktik birliklarning ham o'z o'rnini mavjud bo'lib, biz ularning gapdagi o'rnini keyingi bo'limda ko'rib o'tamiz. Xozir biz ushbu gapning yunksion modelini quyidagicha ifoda etamiz.

3-chizma.



Yuqorida ko'rsatilgan modeldan, shuni anglash lozimki, gapdagi sintaktik birliklarning aloqalari strelkalar bilan belgilangan, ammo *“bugundan boshlab”* sintaktik birligi mustaqil birlik bo'lib, u gapdagi biror bo'lakka tobe emas. Endi ushbu gapning komponent tahlilini ko'rib chiqamiz.

Misollardan ko'rinib turibdiki, o'zbek tilidagi egaga kesimning moslashuvi uchun I va II shaxs-sonda *-ay-*, *-ylik* kabi affikslarni olgan, ingliz tilida esa III shaxsda fe'l kesimlarimiz *-s-* affiksini olgan.

I bobga xulosa

Ushbu bobda ingliz tilida mavjud bo'lgan modal fe'llar o'zbek tilida qay tarzda ifodalanishi yoritilib, o'zbek tilidagi modal so'z va harakat nomini bildiruvchi so'zlar ifodalagan uyushiq kesimlar komponent va sintaksemalarga ajratib tahlil qilindi. Bizga ma'lumki o'zbek tilida aynan modal fe'llar mavjud emas. Shuning uchun men, avvalo, o'zbek tilida mavjud bo'lgan modal so'zlar yoki modallikni ifodalovchi so'zlarni o'rganib chiqdim. Ko'pgina o'zbek grammatika kitoblarida, jumladan O'zbek tili grammatikasi I tom (morfologiya) kitobida modal so'zlarni asosan fe'llarning xoslangan shakllari bilan kelishi haqida yozilgan. Modallikni ifodalovchi *kerak*, *lozim*, *shart*, *mumkin*, so'zlari ingliz tilidagi maxsus modal fe'llarga to'g'ri keladi.

Demak, biz kesimi modal fe'l va infinitiv bilan ifodalangan uyushiq bo'lakli gaplarni o'zbek tiliga tarjima qilganimizda, ularni quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin.

Then he must go home and change his clothes.

Keyin u uyiga borishi va kiyimini almashtirishi kerak. Ushbu gapda ingliz tilidagi *must* modal fe'li har ikkala infinitivga barobar tegishlidir va o'zbek tilida modal so'z deb ataluvchi "*kerak*" so'zi bilan birga harakat nomini bildiruvchi so'zlar ham keltirilgan. Bunda *kerak* modal so'zi har ikkala harakat nomini bildiruvchi so'zga bab-barobar tegishlidir. Men bu kabi misollar yordamida kesimi modal fe'l va infinitiv bilan birga ifodalangan uyushiq kesimlarni o'zbek tilida berilishini va o'zbek tilida ham xuddi shu kabi gaplarning komponent tahlilini berib o'tdim. Modal fe'l + infinitiv bilan ifodalangan uyushiq kesimli sodda gaplarning ingliz tilidagi komponent tahlilini biz II bobda ham to'liqligicha ko'rib o'tamiz. Bu bobda esa asosan o'zbek tilidagi modal ma'noli so'zlar yordamida hosil qilingan uyushiq kesimli sodda gaplar tahlil qilindi. O'zbek tilidagi uyushiq bo'laklar haqida umumiy ma'lumot ham berib o'tildi. Uyushiq kesimlarni yaxshiroq tushunish uchun bob avvalida uyushiq bo'laklar to'g'risida umumiy ma'lumot berib o'tishni ma'qul topdim. Ingliz tilida modallik 4 usul yordamida hosil qilinadi, o'zbek tilida esa 2 usulni kuzatamiz. Bunga sabab sifatida o'zbek

tilida modal fe'llarning yo'qligi va modallik modal ma'noli so'zlar yordamida ifodalanishini aytib o'tish joiz. Zaruriyat, ehtimollik, qobiliyat, imkoniyat, shartlilik, mumkinlik, xohish istakni bildiruvchi so'zlar ingliz tilida maxsus modal fe'llar *can, must, should, may, might, dare, ought to* va hokozolar yordamida ifodalanadi. Gap gap sifatida qabul qilinishi uchun modallik ham muhim jihat hisoblanadi. Shuning uchun ham modal so'zlar fe'llar bilan hosil qilinadigan uyushiq kesimlar mavzuimning asosiy qismlaridan biridir. Ularni o'rganish nazariy grammatikaning muhim va kerakli sohasi deb o'ylayman.

II BOB. INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA ARALASH UYUSHIQ KESIMLAR TIPOLOGIYASI

Ushbu bob haqida so‘z yuritishdan avval, qisqacha gap qurilmasi va sintaktik munosabatlar borasida ham to‘xtalib o‘tishni ham joiz deb topdim.

Bizga ma’lumki, bir sodda gap tarkibida gapning bosh bo‘laklari va ikkinchi darajali bo‘laklari mavjud bo‘ladi. Gap asosan sintaksisda o‘rganiladi. Demak gap tuzilishida sintaktik munosabat va sintaktik strukturalarga tayanib ish ko‘riladi.

Tilshunoslik fani taraqqiyotining qariyb hozirgi davrigacha sintaksisning tekshiruv obyekti so‘z birikmalari va gap hisoblanib kelindi va sintaktik muammolar tahlili ham, asosan, ana shu yo‘nalishda olib borildi. Bu esa, o‘z navbatida, sintaksisning asosiy birliklari so‘z birikmasi va gap degan xulosaga kelishga undaydi. Lekin ayrim tilshunos olimlarimiz gap tuzilishida ishtirok etayotgan so‘zlarning o‘zoro sintaktik munosabatlardagi farqini kuzatgan. So‘z birikmasida so‘zlar moslashuv, boshqaruv va bitishuv aloqalari zahirida munosabatga kirishsa, gap sathida qo‘llanilgan so‘zlarning munosabatlari haqida so‘z yuritilganda, ya’ni agar uyushiq bo‘laklarini olib qaraydigan bo‘lsak, gapda uyushib kelayotgan bo‘laklar vazifasida kelayotgan so‘zlarning sintaktik munosabatlarini tadqiq etish uchun moslashuv, bitishuv va boshqaruv usullari zaiflik qiladi. Vinogradov ta’limotida so‘z birikmasi kamida mustaqil so‘zning tobelik asosidagi munosabatidan tashkil topishi ta’kidlanadi va mazkur g‘oya rus tilshunosligida va shu asosda o‘zbek tilshunosligida ham dasturul-amal bo‘lib qoldi [7,38].

Lekin masalaning bu taxlit qo‘yilishi ko‘pgina chigalliklar kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Unga ko‘ra so‘zlarning tenglik asosida bog‘lanishi, so‘z birikmalarining (xususan fe’lli birikmalarining) predikativlik belgisi kabi qator masalalarni tadqiqotlar kun tartibiga qo‘yib bo‘lmasdi. Boshqa tilshunosliklarda, shu jumladan Yevropa mamlakatlari tilshunosliklarida esa so‘z birikmasiga taaluqli bo‘lgan bu masalalar mukammal o‘rganilib kelinmoqda. Masalan, taniqli tilshunos P. Diderinsen so‘z birikmalari sathida so‘zlarning bog‘lanishi quyidagi uch xil usulda bo‘lishini ta’kidlaydi: Parataksis (teng bog‘lanish), gipotaksis (tobe

bog'lanish) va neksus (predikativ bog'lanish). Bu haqda Barxudarov tadqiqotlarida ham ko'rishimiz mumkin [37,44].

Muxin nazariyasiga asoslanadigan bo'lsak, gapdagi har bir bo'laklar o'rtasidagi o'zoro munosabat quyidagicha izohlanadi ya'ni ega va kesim gapning asosiy yadrosi hisoblanib, ular gapda yadro predikativ munosabatda deya kuzatiladi, gapning qolgan ikkinchi darajali bo'laklari o'z navbatida yadro bo'lmagan predikativ aloqada bo'ladi [49,230].

Zero, har qanday gap predikativlik xususiyatiga ega bo'lishi shart. Aks holda u gap emas, balki so'zlar yig'indisi bo'lib qoladi. Predikativlik an'anaviy grammatikalarda berilishicha, ega va kesimdan anglashilgan fikrdir. Lekin predikativlikni ta'riflashda nafaqat ega va kesimdan anglashilgan fikrga, balki bir yadroli gaplarda ham predikativlik mavjud ekanligini aytib o'tish lozim [49,61].

Tilshunoslikda predikativlik deganda ko'pincha kesim vazifasini bajaruvchi unsur tushuniladi. Lekin predikativlik asosan gapning asosiy mazmunini yorituvchi unsurga nisbatan aytiladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, bir sodda gapda har bir bo'lak uyushib kelib, uyushiq bo'laklarni hosil qiladi. Ya'ni bir sodda gapda yadro predikativ I ni ifodalovchi ega, yadro predikativ II ni ifodalovchi kesimlar uyushib kelib, o'zoro sintaktik munosabatlarga kirishadi.

Bitiruv malakaviy ishning asosiy maqsadi kesim vazifasida uyushib kelayotgan komponentlarni yoritish bo'lib, kesimning oddiy fe'l-kesim holda uyushib kelishinigina emas, balki qo'shma fe'l kesimlarning ham uyushib kelish holatlarini kuzatishdir.

Gapning asosiy yadrolaridan birini ifodalab keluvchi kesim egadan keyingi ikkinchi bosh bo'lak bo'lib, gap orqali aloqa-aralashuvda, fikr almashuvda katta ahamiyatga egadir.

Kesim egadan anglashilgan shaxs, narsa-predmet va voqea-hodisaning belgisini bildiradi. Bu jihatdan u aniqlovchiga o'xshab ketadi. Biroq belgini qanday ifoda etishiga ko'ra, aniqlovchi bilan kesim o'zoro farq qiladi. Aniqlovchida belgi predmet tasavvuri bilan qo'shilib, yaxlit bir butun tushuncha

holida, attributiv aloqa yo‘li bilan ifodalansa, kesimda u shu belgining egadan anglashilgan predmetda mavjud yoki mavjud emasligi nuqtai nazaridan tasdiqlash tarzida-hukm shaklida, predikativ aloqa yo‘li bilan ifodalanadi.

Grammatik jihatdan kesim o‘z tarkibidagi bo‘laklariga nisbatan hokim, egaga nisbatan tobedir. Ega birinchi bosh bo‘lak, mutloq hokim bo‘lak bo‘lsa ham, gapni tashkil etishda, gaplikni ko‘rsatishda kesim muhim rol o‘ynaydi. Ingliz tilida ham kesimga shunday ta’rif beriladi.

“The predicate is the second principal part of the sentence which expresses an action, state, or quality of the person or thing (the word thing is used in a broad sense denoted by the subject. As a rule the predicate contains a finite verb which may express tense, mood, voice, aspect, and sometimes person and number. According to the structure and the meaning of the predicate we distinguish two main types: the simple predicate and the compound predicate [45,229].

Demak kesim gapning asosiy belgilaridan biri bo‘lishi predikativlikni ko‘rsatadigan zaruriy elementidir. Gap uchun xarakterli bo‘lgan modallik, prosodika va intonatsion tugallik kabi hodisalar ko‘pincha kesim bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun odatda gapning ba’zi semantik turlarini belgilashda kesim, uning formasi asosga olinadi. (*M-n: uyga kir- come in buyruq gap Uyga kirding - you come in-darak gap.*); gapda kesimning tushib qolishi boshqa bo‘laklarning tushib qolishiga qaraganda birmuncha kam uchraydi va bu narsa ko‘pincha gap strukturasiga sezilarli ta’sir qiladi.

Kesimning ma’nosi va grammatik shakli uning ega bilan bo‘lgan munosabatiga hamda qanday so‘z turkumi bilan ifodalanishiga bog‘liq.

Kesim ko‘pincha fe’llar bilan ifodalanadi. Fe’llar kesim vazifasida qo‘llanuvchi tipik so‘zlardir. Tuslangan fe’llar predikativlik xususiyatini o‘zida yorqin aks ettiradi: ular zamon, mayl, shaxs-son ma’nolarini bildiradi. Shuning uchun har bir tuslangan fe’l bir gapni hosil qilishi mumkin. *I read, I’ll read.* Kesim vazifasida boshqa so‘zlar ham kela oladi. Biroq bunda ayrim shart-sharoitlar kerak: fe’ldan boshqa so‘zning kesim vazifasida kelishida bog‘lama, predikativlik affiksi, tartib va intonatsiya kabi hodisalarning roli kattadir.

Uyushiq kesimlar ham faqat oddiy fe'l bilan ifodalanib qolmasdan, ular bog'lama, modal kabi fe'llar bilan ifodalanadi. Albatta har bir uyushib kelgan kesimning egaga bo'lgan munosabati muhim hisoblanadi. Endi uyushib kelgan kesimlarning ifodalanish usullari haqida so'z yuritsak, kesim material jihatdan (qanday so'z turkumi bilan ifodalanishi jihatdan) bir necha xil bo'ladi. So'z turkumlari fe'l va ot turkumlariga ajralganidek, kesim ham dastlab ikki turga ajraladi: fe'l kesim (simple verbal predicate) va ot kesim (nominal predicate).

Fe'l o'zining leksik-grammatik xususiyatiga ko'ra, kesim vazifasida qo'llanishga juda mos so'z turkumidir. Fe'l kesim egadan anglashilgan predmetning (predmet keng ma'noda: shaxs, narsa-predmet, buyum, voqea-hodisa va hokozo) harakatini yoki holatini bildiradi:

Yo'lchi oshxonaga kirdi va ovqatlanadi.

Lucy came into the room and drank tea.

Turobjon qizardi va yerga qaradi.

Tom got married and went away.

Uyushib kelayotgan kesim vazifasida keladigan har bir fe'l formasining o'ziga xos xususiyati formasi bor. Bu hol ularni alohida-alohida bayon etishni talab qiladi.

1) Ijro maylidagi fe'l kesim haqida so'z boradigan bo'lsa, ko'pincha mustaqil sodda gapning kesimi uyushib kelgan holatida kelib, egadan anglashilgan predmet har bir uyushib kelgan unsur bildirgan harakatining uch zamondan birida real bajarilishi yoki bajarilmasligini bildiradi.

Ingliz tilida ega I chi va II chi shaxsni ko'rsatganda fe'lga hech qanday o'zgarish sezilmaydi, ammo o'zbek tilida shu shaxslardan birini ko'rsatuvchi maxsus affikslarga ega bo'ladi.

O'zbek tili bilan ingliz tilida mavjud kesimlar taqqoslansa, o'zbek tilida 3 ta shaxsni ko'rsatganda ijro maylidagi uyushgan fe'l kesimlar shaxsni ko'rsatuvchi maxsus affiks qabul qilmaydi, ammo ingliz tilida buning aksidir:

Men ertaroq kelaman va sizni bog'da kutib turaman.

I get up early and wash with cold water.

Siz keling va ularni olib keting.

You can come and stay with us.

E'zoz Qumriga yoshli ko'zlari bilan tikildi va xo'rsindi.

Jane plays the piano and sings a beautiful song.

Sostavli fe'l kesim (The Compound verbal predicate). Sostavli fe'l kesim ikki va undan ortiq fe'llardan yasaliib, tarkibida modal so'z bo'lgan sostavli fe'l kesim, tarkibida modal so'z bo'lmagan sostavli fe'l kesimga bo'linadi.

Tarkibida modal so'z bo'lgan sostavli fe'l kesim. (The Compound verbal predicate). Tarkibida modal so'z bo'lgan sostavli fe'l kesimlardan birinchi o'rinda modal fe'l so'ng infinitiv keladi. Bunda asosan *may (might, must, can (could), to be to, to have to, will, ought to, should, would, dare, need* modal fe'llari va *to be able to, to be obliged to, to be going to* kabi modal ma'no anglatuvchi turli modal munosabatlarni *mumkinlik, taxminiylilik, majburiylilik, zaruratni ifodalovchi* so'zlar ishlatiladi. Modal fe'llar harakatni bildirmasdan faqat qo'shimcha ma'noni va h.k. ifodalaydi.

You may come and stay with us.

Tarkibida modal so'z bo'lmagan sostavli fe'l kesim (The Compound verbal nonmodel predicate). Tarkibida modal so'z bo'lmagan sostavli fe'l kesimning birinchi elementi a) *to like, to wish, to want, to desire, to hope, to expect, to intent, to attempt, to try* kabi xohish istak, ishonch kabi modal ma'nolarini ifodalovchi fe'llardan, b) *to continue, to come, to begin, to start, to fall, to go on, to keep on, to proceed, to stop, to finish, to seem, to appear, to happen* kabi fe'llardan tuzilib, ikkinchi fe'llardan elementlardan anglashilgan ish harakatning boshlanishi, davomiyligini, takrorlanishini, taxminni, kutilganligini anglatib turadi.

Sostavli fe'l kesimning ikkinchi komponenti asosan infinitiv yoki gerundiy bilan ifodalangan bo'ladi. Bu turdagi kesimni ko'pchilik qo'llanmalarda sostavli aspektli fe'l kesim (The Compound verbal aspective predicate) deb ham atashadi.

At that my heart gave a bound, and began running along the road.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, yuqorida ko'rsatilgan barcha kesim turlari uyushib kelishi mumkin. Bu holatlar haqida tilshunos olimlar biror bir to'liq

xulosaga kelmagan va to'liq manbalarga to'xtalib o'tmagan bo'lsada, biz bunday holatlarni ingliz va o'zbek tilida berilayotgan asarlarda juda ko'p marotaba uchratamiz va asosiy ishimizni barcha turdagi uyushib kelgan kesimlar tipologiyasiga qaratamiz. Biz odatiy gap uchratadigan oddiy bir kesim uyushib kelishi mumkin.

Bir yoki bir necha egaga barobar tobe bo'lgan birdan ortiq kesim uyushiq kesim deyiladi. Uyushiq kesimlar material jihatdan uch xil bo'ladi.

Bu haqida o'zbek tilida "O'zbek tili grammatikasi" II tom (Sintaksis) qismida [32,177] va Tanshina "The English Grammar" kitobida bir muncha to'xtalib o'tilgan. Ya'ni uyushiq kesimlarning ham o'z navbatida bir necha turlari mavjud [51,356].

1. Uyushiq fe'l kesimlar. Bunda barcha komponentlari oddiy fe'l bilan ifodalangan uyushiq kesimlar kiradi.

U na kuladi, na yig'laydi.

John hunched and reared and threw....

Ushbu berilgan misollarimizda uyushib kelgan kesimlar oddiy fe'llar bilan ifodalangan, ular garchi turli zamon formalariga ega bo'lsada, har ikkala gapda ham uyushiq kesimlarning sintaktik vazifasi bir xil bo'lib, egaga har bir kesim tobe bog'lanib uyushib kelgan va kesimlar o'zoro teng bog'lovchilar yordamida teng bog'langanlar. Ular bir-birlari bilan teng sintaktik aloqada bo'lsalar, *U* va *John* egalariga bab-barobar tobe aloqadir.

Uyushiq kesimlar komponentlari zamon, daraja, mayl, bo'lishli-bo'lishsizlik jihatdan doim bir xil bo'ladi. Biz bu holatni o'zbek va ingliz tillarida beriladigan misollarda yaqqol ko'rishimiz mumkin.

In his own small room Martin lived, slept, studied, wrote and kept house.

She took the vase of roses, and left the room.

She got up, plucked a piece of honeysuckle, and went in.

Ko'rinib turibdiki, bu yerda keltirilgan uyushiq kesimlar hammasi –*lived*, –*slept*, –*studied*, –*wrote*, –*kept*, –*took*, –*left*, –*got up*, –*went in* bir xil zamonda Simple

Pastda ifodalangan. Hammasi indikativ maylda bo‘lishlilikni ifodalamoqda. Endi o‘zbek tilida berilgan quyidagi misollarni ko‘rib o‘tamiz.

Xo‘jayinimni o‘ldirib pulini olaymi, o‘zimni garovga qo‘yaymi?

Bu gapni bir aytdingiz, yana qaytarib gapirmang.

Bu yillar davomida u o‘rgandi va o‘rgatdi.

O‘zbek tilida keltirilgan misollarda –*pulini olaymi, garovga qo‘yaymi* uyushib kelgan kesimlar, har ikkalasi ham so‘roq shaklini va bir zil zamonni ifodalamoqda. –*Aytdingiz, va gapirmang* kesimlari ham *o‘rgandi* va *o‘rgatdi* kabi uyushib kelgan kesimlar bir xil zamonda va bir xil shaklda ifodalangan.

Bizga ma’lumki, o‘zbek tilida ko‘pchilik holatlarda uyushiq ravishdosh kesimlarga duch kelamiz. Bunda uyushiq fe’l kesimlarning oldingi komponenti (yoki komponentlari) ravishdosh bilan ifodalanishi mumkin. Ingliz tilida esa bunday holatlarni deyarli uchratmaymiz. Masalan:

Dill took the paper and gave it to Jem

Dill stopped and let Jem go ahead.[60,34]

Ushbu berilgan misollarda uyushiq kesimlar: **took, gave; stopped** va **let** larni kuzatganimizda ingliz tilida biror ravishdoshni ya’ni ravishdosh kesimni uchratmaymiz ammo ushbu gapni o‘zbek tilida ifodalaganimizda yoki tarjima qilganimizda, biz ravishdosh kesimdan foydalanamiz. Chunki o‘zbek tilida ravishdosh kesim eganing qo‘shimcha harakatini bildiradi va grammatik jihatdan egaga tobe bo‘ladi. Ya’ni:

Dil qog‘ozni olib Jimga uzatdi,

yoki *Dil qog‘ozni oldi va uni Jimga uzatdi*

kabi holatlarni ko‘rishimiz mumkin. Ikkinchi misolga to‘xtaladigan bo‘lsak, *Dil to‘xtadi va Jimga oldinga o‘tishga yo‘l berdi.*

Uyushiq ravish kesim ifodalaydigan harakat tuslanuvchi fe’l kesim ifodalaydigan harakatdan oldin sodir bo‘ladi. Bunday holatlarni biz quyidagi misollar orqali ko‘rib chiqamiz.

Shu payt qattiq bo‘ron turib, kemamizni surib ketdi.

U xalqani bo‘yniga ilib, narvondan o‘zini pastga tashladi.

Misollardan shuni aniqlash mumkinki, biz uyushiq ravishdosh kesimlarni ravishdosh holdan bimalol qiyinchiliksiz ajratishimiz mumkin. Chunki ravishdosh hollar avvalo egaga emas, kesimga tobe bo'ladi. Bundan tashqari uyushiq ravishdosh kesim ifodalaydigan harakat tuslanuvchi fe'l kesim ifodalaydigan harakatdan oldin ro'y beradi. Ravishdosh hol ifodalaydigan harakat esa fe'l kesim ifodalaydigan harakat bilan bir vaqtda ro'y beradi. Ravishdosh hol ifodalaydigan harakat esa fe'l kesim ifodalaydigan harakat bilan bir vaqtda sodir bo'ladi. Ingliz tilida biz buni gerundiy va sifatdosh orqali ifodalanadigan fe'l kesimlar harakatidan tushuniladigan ma'nolarda uchratamiz. Masalan:

- 1) *Without much thinking, she reached Dearborn Street.*
- 2) *Nazira buvi o'smoqlanib so'radi.*
- 3) *...yigitlar kuyovga to'n kiydirib shoyi qiyiq bilan belini bog'ladilar.*
- 4) *Then she went to the blackboard, wrote the alphabet in big letters, turned to the class and asked...*

Yuqoridagi misollarda 1 va 2 gaplarda uyushiq kesimlar kuzatilmayapti ularning har birini fe'l kesimga aylantirish va ular orasiga teng bog'lovchilarni kiritish mumkin emas. Ammo 3 va 4 gaplardagi uyushib kelgan kesimlarni tuslanuvchi fe'l kesimga aylantirish va orasiga teng bog'lovchini kirgizishimiz mumkin. Transformatsion metoddan ham foydalansak bo'ladi. Ya'ni **Yigitlar to'n kiydirdilar va qiyiq bilan ...bog'ladilar**. Yoki ingliz tilida **She went to., wrote, turned and asked**. Bizga ma'lumki, uyushib kelgan kesimlar egaga bab-barobar tobe sanaladi ya'ni ular kesimning qanaqa turi bo'lishidan qat'iy nazar egaga bir xil tobe hisoblanadi. Tipologik jihatdan nazar tashlasak, shuni ayta olamizki, uyushib kelgan kesimlarning sintaktik birliklarning, bir-biri bilan sintaktik aloqalarini aniqlab ularni yunksion (aloqa) modellar yordamida ifoda etishni tushunamiz.

Uyushiq kesimlar sodda gaplarda yadro predikativ aloqadan tashqari koordinativ, subordinativ aloqalarda bo'lishi mumkin. Fikrimizning isboti sifatida yana ingliz va o'zbek tillaridagi fe'llar anglatgan ma'nolarga ko'ra (semantik nuqtai nazardan) turlariga to'xtalib o'tamiz.

1. Mustaqil fe'llar (Notional verbs)
2. Modal fe'llar (Modal verbs)
3. Bog'lama fe'llar (Link verbs)

Gapda yadro predikativlik II o'rnida kelgan uyushiq bo'laklar tipologiyasi deganda, ingliz va o'zbek tillarida ifodalangan gaplarda bir egaga barobar tobe bo'lgan birdan ortiq uyushib kelgan kesimlarning sintaktik birliklarning bir-biri bilan bo'lgan sintaktik aloqalarini aniqlab ularni yunksion (aloqa) modellar yordamida ifoda etish tushuniladi.

Ko'pchilik tilshunoslar ta'kidlaganidek, gapda uch asosiy belgi mavjud: predikativlik, modallik, ohang.

Predikativlik deganda gapdagi ega va kesimning o'zaro munosabati hamda ularda anglashilgan fikr tushuniladi. Сланский В.ning "Грамматика-как она есть и как должна бы быть" nomli kitobida gapda nima haqida fikr borsa, o'sha kesim hisoblanadi deya ta'kidlangan [50,122]. Yana bir rus tilshunos olimi N.I. Grech esa o'zining "Практическая русская грамматика" kitobida "сказуемой есть качество, которое ми в суждении своеам придаем подлежащему или отнимаем у него" deb yozadi [42, 56].

Modallik esa tushuncha kategoriya bo'lib, bunda so'zlovchining aytiladigan fikriga subyektiv munosabati, aytiladigan fikrning real voqeiylikka bo'lgan munosabati tushuniladi, ohang esa bu har qanday tugal fikrni anglatuvchi gap ma'lum o'ziga xos intonatsiya bilan nutqda nomoyon bo'lishidan iboratdir.

Agar biz har bir gapning 3 belgisiga asoslansak, u holda gapning darak, so'roq, buyruq gaplarga bo'linishi toqozo etiladi. A.M. Muxinning fikriga ko'ra gapning asosiy yadrosi ega va kesim bo'lib, ular o'rtasidagi sintaktik aloqa yadro predikativ aloqa deyiladi. Uyushiq kesim sodda gaplarda yadro predikativ aloqadan tashqari koordinativ, subordinativ aloqalar bo'lishi mumkin [49,230]. Ingliz tilida badiiy asarlardan yig'ilgan misollarimiz asosida gapdagi uyushiq kesimlarning morfologik jihatdan ifodalanishiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin.

1. Kesimi sodda fe'l bilan ifodalangan uyushiq kesimli sodda gaplar.

2. Uyushiq fe'l bilan ifodalangan uyushiq kesimli sodda gaplar.
3. Kesimi modal fe'l+infinitiv bilan ifodalangan uyushiq kesimli sodda gaplar.
4. Kesimi link verb + sifatdosh II bilan ifodalangan uyushiq kesimli sodda gaplar.(majhul nisbat)
5. Kesimi link verb + ot bilan ifodalangan uyushiq kesimli sodda gaplar.
6. Kesimi link verb + sifat bilan ifodalangan uyushiq kesimli sodda gaplar.

O'zbek tili akademgrammatikasida uyushiq kesimlar material jihatdan uch xil bo'ladi deyiladi.

- 1) Uyushiq fe'l kesimlar. Bunda barcha komponentlari fe'l bilan ifodalangan uyushiq kesimlar kiradi.

Shu kuni kechasi yotar mahalda, To'xtabuvini vahima bosdi: bularku hammasi va'da berdi, sayladi.

- 2) Uyushiq ot kesimlar: Bunga barcha komponentlari ot (keng ma'noda) bilan ifodalangan uyushiq kesimlar kiradi:

Biz shod, baxtiyormiz.

- 3) Uyushiq aralash kesimlar: Bunga ba'zi komponentlari ot bilan, boshqa komponentlari fe'l bilan ifodalangan uyushiq kesimlar kiradi:

Men talabaman, oliygohda o'qiyman.

Har ikkala tillarda kesimni ifodalanishiga ko'ra tasniflaganimizda quyidagicha guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq.

Ingliz tilida:

1. Uyushiq shaxsli fe'l bilan ifodalangan;
2. Uyushiq fe'l + fe'l bilan ifodalangan;
3. Uyushiq modal fe'l + infinitiv;
4. Uyushiq to be fe'li + ot;
5. Uyushiq to be fe'li + sifat;
6. Aralash uyushiq kesimlar.

O'zbek tilida esa:

1. Uyushiq shaxsli fe'l bilan ifodalangan;
2. Uyushiq fe'l + fe'l bilan ifodalangan;

3. Uyushiq infinitiv + modal soʻz;
4. Uyushiq ot + dir yoki ermoq feʼli;
5. Uyushiq sifat + dir yoki ermoq ;
6. Aralash uyushiq kesimlar.

Endi uyushiq kesimlar bilan ifodalangan gaplarni komponentlab tahlil etishga oʻtamiz.

2.1. Ingliz va oʻzbek tillarida aralash uyushiq kesimlar tipologik nazariyasi

Mazkur bobda ingliz tilida bir sodda gap tarkibida kesimi modal feʼl va infinitiv bilan ifodalangan uyushiq kesimlarni tahlil qilib chiqishdan avval, kesim turlari haqida toʻxtalib oʻtamiz. Bizga maʼlumki, kesim gapning bosh boʻlaklaridan biri boʻlib, ega tomonidan ifodalangan narsaning harakat yoki xususiyatini ifodalaydi, u ham boshqa biror gap boʻlagiga tobe boʻlmaydi hamda ifodalanish usullari turli-tumandir. Shu sababli ham bosh boʻlaklardan kesim muammoli hisoblanadi.

Anʼanaviy grammikalarda kesimni sodda feʼl kesim, qoʻshma feʼl kesim, qoʻshma aspekt feʼl kesim, qoʻshma ot kesim hamda aralash kesim kabi turlarga ajratiladi. Ushbu kesim turlaridan, dastlab qoʻshma aspekt feʼl kesimni soʻngra qoʻshma modal feʼl kesimlar ustida toʻxtalib oʻtamiz. Qoʻshma aspekt feʼl kesim turining xuddi shunday nomlanishi hamda aspekt feʼl kesim oʻrnidagi unsurlarning haqiqatdan ham ushbu kesim turi tarkibiga kiritish toʻgʻri yoki notoʻgʻriligi munozaralidir. Xuddi shu fikr qoʻshma modal feʼl kesimida ham kuzatilishi mumkin.

Every one started singing and dancing.

They must come and have their lessons.

Ingliz tilshunoslarining koʻpchiligi bunday kesim turini qoʻshma feʼl aspekt kesim deb atashlariga asosiy sabab shundaki, ish harakatning boshlanishini, davom etishini yoki tugashini ifodalovchi feʼllar yaʼni *to begin, to start, to commence, to fall, to set about, to go on, to keep out, to preceed, to continue, to stop, to give up, to finish, to cease, to come* kabi feʼllar bilan infinitiv yoki gerundiylar birikib keladi.

Lekin aspekt kategoriyasini aniqlashda morfologik, leksik, sintaktik qatlamlarning bir-biri bilan o‘zaro aloqasi va farqiga e’tibor berish maqsadga muvofiq.

Ammo modal fe’l bilan birikib kelayotgan infinitivdagi modal fe’l sintaktik birlik hisoblanmaydi va bor e’tibor infinitivdan anglashilgan harakatga qaratiladi.

Agar aspekt kategoriyasi morfologik kategoriya sifatida qaralsa, albatta, zamon shakllari bazasida ma’no ottenkalaridan kelib chiqilsa to‘g‘ri bo‘lar edi.

Agar u leksik qatlamda qaralsa, fe’llarning lug‘aviy ma’nosi e’tiborga olinadi, sintaktik qatlamda esa unga ish harakatning boshlanishi, davom etishi va tugashini ifodalovchi fe’llar bilan bog‘lanib kelgan fe’lning noaniq shakli, gerundiy va infinitiv gaplarda ajralmas birikmani yoki ular ham o‘zaro sintaktik aloqa asosida gap qurilmasiga kiritilganmi degan savol o‘z-o‘zidan tadqiqotchilar oldiga muammo qilib qo‘yiladi.

Albatta, bunday jumboqni yechish uchun tushirib qoldirish transformatsiyasidan, ya’ni eksperiment metodidan foydalanishga to‘g‘ri keladi:

Every one started singing and dancing.... Every one started...; They must come and have their lessons... They must come..... They must....have....;

Ko‘rinib turibdiki, tushirib qoldirish transformatsiyasi yordamida gaplarning asosiy sintaktik yadrolari ko‘zga yaqqol ko‘rinmoqda. Ammo shuni ta’kidlash joizki, yuqoridagi gaplarda *startedni* va *come* infinitivini tushirib qoldirib bo‘lmaydi, chunki gapning asosiy sintaktik qurilmasi buzilishi mumkin:

(1)....*every one started singing and dancing ... →every one....singing; dancing*

(2) ...*They must come and have lessons→they must...*

Agar ushbu gaplarni komponent va sintaksemlarga ajratib tahlil qiladigan bo‘lsak, unda bizning fikrimiz yanada oydinlashadi.

Every one started singing and dancing.

They must come and have their lessons.

Ularning komponent tahlili quyidagicha:


1) NP1 . IHNP2 . IIHNP2

PrInd Vf Ger Vf Ger


2) NP1 . IHNP2 . IIHNP2

Pr per Au.m.inf Au m v

4-chizma.



5-chizma.



Yunksion modeldan ko‘rinib turibdiki, uyushib kelgan bo‘laklar *startedga* barobar subordinativ aloqada, ikkinchi gapdagi *must* modal fe’li bilan birga kelayotgan infinitivlar *come* va *havelar* mustga barobar taaluqli bo‘lib, subordinativ aloqani tashkil etmoqda.

2.2. Kesimi uyushiq sodda fe’l bilan ifodalangan uyushiq kesimli sodda gaplarning komponent tahlili

Kesimi sodda fe’l bilan ifodalangan uyushiq gaplarga asosan uyushiq kesimlarning sof fe’llar bilan ifodalanishi kuzatiladi. Bunday holatlar o‘zbek tili asarlarida keltirilgan gaplardan ko‘ra ingliz tilida keltirilgan asarlarda uchraydigan sodda gaplarda uyushib kelgan bir qancha kesimlarni uchratish mumkin. Biz hozir quyida bir qancha o‘zbek va ingliz tillarida misollarni keltirib so‘ngra ularning koordinativ va subordinativ aloqalarini aniqlab chiqamiz.

Ya’ni gap tarkibida ishtirok etgan birliklarni komponentlarga ajratib tahlil qilib, sintaktik birliklarning o‘zaro sintaktik aloqalarini aniqlab (yunksion modellarda) hamda ularning differensial sintaktik belgilarini aniqlab, ularni komponent modellarda izohlaymiz hamda har bir komponentning morfologik xususiyatlarini ifodalaymiz.

1. *He turned and turned, and caughed all the time.*
2. *He drew piuctures, played games, imagined all kinds of things.*
3. *Jem looked around then took out a little shiny package and put it into his pocket.*
4. *She stepped on my feet, pinched my arms, hid my blouse, and knotted my braids together.*
5. *He played us, and was always kind.*
6. *The boy jumped up and rushed to the kitchen.*

Uyushiq kesimlarning konstruktiv xususiyatlarini o‘rganishda biz ularni koordinativ aloqalar asosida gap tarkibida ajralishidan kelib chiqadi. Yuqoridagi misollardagi uyushiq kesimlarning gap tarkibidagi o‘rni va o‘zoro aloqalarini ko‘rib o‘tamiz 1,2,3,4,5 va 6 gaplardagi uyushiq kesimlar *turned, caughed, drew; played, read, was kind, jumped, rushed* kabi kesimlar har bir gapda bir-biri bilan o‘zoro teng bog‘langan ya’ni koordinativ aloqada kelganlar, ularning har biri, bir xil sintaktik vazifada va bir xil zamon formalarida qo‘llanilgan. Birinchi gapdagi *turned and turned, and caughed* uyushiq kesimlari *he* egaga bir xil tobe holda ya’ni subordinativ aloqada bog‘langanlar. Biz buni isboti sifatida professor A. M. Muxin va uning o‘quvchilari tomonidan ishlab chiqilgan tilshunoslikda keng qo‘llaniladigan metodlar, u yoki bu ko‘rinishdagi sintaktik nisbat nazariyasi bir shakl va tarkibda o‘rganib chiqamiz. Avvalo, ularning uyushib kelish holatlarini ko‘rsatish uchun tushurib qoldirish ya’ni transformatsion metoddan foydalanamiz.

1. *he...turned, turned,... caughed –He turned... he turned... he caughed*
2. *He drew,...played..., imagined...- he drew...-he played... he imagined*
3. *Jam looked around,... took out...put into...-Jam looked around,... Jam... took out,...Jam put into...-*
4.*she stepped on....pinched... he hid,...knotted ...-she stepped on, -she pinched ..., she hid ..., she knotted.*
5. ... *he played us, read us, and was always kind – he played ..., he read, ... he was ... kind.*
6. *the boy jumped and rushed-the boy jumped ... the boy rushed ...*

Endi shu kabi uyushiq kesimlar keltirilgan gaplarni o‘zbek tili misollarida ham ko‘rib chiqamiz va ularni taqqoslaymiz.

1. *U halqani bo‘yniga ildi va narvondan o‘zini pastga tashladi.*
2. *Negaki, u singlingni o‘qitdi, uyimizni ta‘mirlab berdi.*
3. *Pochchang bilan buqalarni yuvib taradik, mevali daraxtlarning tagini yumshatdik.*
4. *Malika yuz qo‘lini yuvdi, keyin gazni yoqdi, choygumni olov ustiga qo‘ydi.*
5. *... Azizjon u bilan so‘rashdi va mehmonxonaga qarab yurdi.*
6. *U tipirchilab qarshilik qiladi, dodlaydi, yalinadi, tavba qiladi...*

Xuddi ingliz tilida keltirilgan misollar kabi bu gaplarda kelgan uyushiq kesimlar: *ildi, tashladi, o‘qitdi, ta‘mirlab berdi, taradik, yumshatdik, yoqdi, qo‘ydi, so‘rashdi, yurdi, qarshilik qildi, dodlaydi, yalinadi, tavba qiladi* ... kabi kesimlar bir –biri bilan o‘zaro sintaktik aloqaga kirganda koordinativ aloqaga, ega bilan esa subordinativ aloqada bo‘ladilar. Bu gaplardagi kesimlarning uyushib kelishini isbotlash uchun yana transformatsion metoddan foydalanamiz.

1. *U ... ildi, ...tashladi- u oldi, u tashladi-*
2. *... u singlingni o‘qitdi-, uyimizni ta‘mirlab berdi, u o‘qitdi, ta‘mirlab berdi- u o‘qitdi – u ta‘mirlab berdi.*
3. *... biz yuvib taradik ... yumshatdik, biz ... taradik, ... biz yumshatdik-*
4. *Malika ... yuvdi, ... yoqdi, ... qo‘ydi- Malika yuvdi ... Malika yoqdi ... Malika qo‘ydi.*
5. *Azizjon ...so‘rashdi, ... yurdi – Azizjon ... so‘rashdi, Azizjon ...yurdi-*
6. *U...qarshilik qiladi, dodlaydi, yalinadi, tavba qiladi- u qarshilik qiladi, u dodlaydi, - u yalinadi – u tavba qiladi.*

Taqqoslovchi gaplarda struktural tafovut uyushiq elementlarida o‘z funksiyasini olib borayotgan tayanch komponentlar tasnifida yaqqol ko‘rinadi.

Ingliz tilidagi misollarning komponent tahlili:

1. $\underline{NP_1} \cdot \underline{INP_2} \cdot \underline{IIHNP_2} \cdot \underline{IIIHNP_2}$
 $P_{np} \quad V_f \quad V_f \quad V_f$

2. $\underline{NP_1} . \underline{IHNP_2} . . \underline{IIHNP_2} . \underline{IIIHNP_2}$
 $P_{np} \quad V_f \quad V_f \quad V_f$
3. $\underline{NP_1} . \underline{IHNP_2} . . \underline{IIHNP_2} . . \underline{IIIHNP_2}$
 $S \quad P_{phr} \quad P_{phr} \quad P_{phr}$
4. $\underline{NP_1} . \underline{IHP_{R2}} . \underline{IIHNO_2} . . \underline{IIIHNP_2} . \underline{IVANP_2}$
 $P_{RP} \quad V_F \quad V_F \quad V_F \quad V_F$
5. $\underline{NP_1} . \underline{IHNP_2} . \underline{IIHNP_2} . \underline{IIIHNP_2}$
 $P_{rp} \quad V_f \quad V_f \quad V_f$
6. $\underline{NP_1} . \underline{IHNP_2} . . \underline{IIHNP_2}$
 $S \quad V_f \quad V_f$

O‘zbek tilidagi misollarning komponent tahlili.


1. $\underline{NP_1} . \underline{IHNP_2} . . \underline{IIHNP_2} .$
 $P_{rp} \quad V_f \quad V_f$
2. $\underline{NP_1} . \underline{IHNP_2} . . \underline{IIHNP_2} \underline{IIIHNP_2}$
 $P_{np} \quad V_f \quad V_f \quad V_f$
3. $\underline{NP_1} . \underline{IHNP_2} . . \underline{IIHNP_2}$
 $P_{rp} \quad V_f \quad V_f$
4. $\underline{NP_1} . \underline{IHNP_2} . . \underline{IIHNP_2}$
 $P_{rp} \quad V_f \quad V_f$
5. $\underline{NP_1} . \underline{IHNP_2} . . \underline{IIHNP_2} . \underline{IIIHNP_2}$
 $S \quad V_f \quad V_f \quad V_f$
6. $\underline{NP_1} . \underline{IHNP_2} . . \underline{IIHNP_2}$
 $S \quad V_f \quad V_f$

Keltirilgan misollarimizda uyushiq kesimlar ingliz tilidagi misollarning birinchisi va ikkinchisi bir xil komponent tahlilda uchta uyushib kelgan kesimlar oddiy fe’l kesimlar bilan ifodalanib, bir xil zamonda, ya’ni o’tgan zamonda ifodalangan. Uchinchi misoldagi ega ot bilan ifodalangan 3 ta uyushib kelgan kesimlar bir- biri bilan koordinativ aloqada kelgan. Keltirilgan boshqa misollarda ham barcha uyushib kelgan kesimlarda ushbu holatni kuzatish mumkin.

O'zbek tilidagi keltirilgan barcha misollardagi uyushiq kesimlar ham oddiy fe'l kesim bilan ifodalanadi, o'zoro teng ya'ni koordinativ aloqada bo'lsalarda ularning barchasi egaga bab- barobar tobe aloqada, ya'ni subordinativ aloqada bo'lgan.

O'zbek tilidagi 1, 2 va 3 misollarning komponent tahlili bir xil va qolgan misollar ham o'z komponent tahliliga ega. Navbatdagi ishimizda biz gaplardagi sintaktik bo'laklarning o'zoro sintaktik aloqalarini yunksion model yordamida berganimizda, bu misollarning yunksion modeli quyidagicha bo'lishi mumkin. Ingliz tilida keltirilgan misollarni yunksion modeli bir xil, ammo komponent tahlilida biroz o'zgaradi.

6-chizma.



1. $\underline{NP_1} . \underline{IHNP_2} \dots \underline{IIHNP_2} \dots \underline{IIIHNP_2}$

$P_{np} \quad V_f \quad V_f \quad V_f$

2. $\underline{NP_1} . \underline{IHNP_2} \dots \underline{IIHNP_2} \dots \underline{IIIHNP_2}$

$P_{np} \quad V_f \quad V_f \quad V_f$

3. $\underline{NP_1} . \underline{IHNP_2} \dots \underline{IIHNP_2} \dots \underline{IIIHNP_2}$


$S \quad V_{ph} \quad V_{ph} \quad V_{ph}$

4. $\underline{NP_1} . \underline{IHNP_2} \dots \underline{IIHNP_2} \dots \underline{IIIHNP_2}$

$P_{rp} \quad V_f \quad V_f \quad V_{con}$

4 va 6 gaplarning yunksion va komponent tahlili quyidagicha:


7-chizma.



5. $\underline{NP_1} . \underline{IHP_{R2}} \dots \underline{IIHNO_2} \dots \underline{IIIHNP_2} . \underline{IVHNP_2}$

$P_{RP} \quad V_F \quad V_F \quad V_F \quad V_F$


8-chizma.



$$6. \frac{NP_1}{S} \cdot \frac{IHNP_2}{V_f} \cdot \frac{IIHNP_2}{V_f}$$

O'zbek tilida keltirilgan misollarning yunksion va komponent tahlillarini quyidagicha: 1,2,3 va 5 misollarning yunksion modeli bir xil ammo 5-gapning komponent tahlilida biroz farq qiladi. Ya'ni unda ifodalangan ega olmosh bilan emas ot bilan ifodalangan.

9-chizma.




$$1. \frac{NP_1}{P_{rp}} \cdot \frac{IHNP_2}{V_f} \cdot \frac{IIHNP_2}{V_f}$$

$$2. \frac{NP_1}{S} \cdot \frac{IHNP_2}{V_f} \cdot \frac{IIHNP_2}{V_f}$$


4 va 6 gaplarda uyushib kelgan kesimlar ishtirok etgan gaplarning komponent va yunksion modellari quyudagicha:

10-chizma.



$$\frac{NP_1}{S} \cdot \frac{IHNP_2}{V_f} \cdot \frac{IIHNP_2}{V_f} \cdot \frac{IIHNP_2}{V_f}$$

11-chizma.



$$\begin{array}{ccccccccc} \underline{NP_1} & \cdot & \underline{IHP_{R2}} & \cdot & \cdot & \underline{IIHNO_2} & \cdot & \cdot & \underline{IIIHNP_2} & \cdot & \underline{IVHNP_2} \\ P_{RP} & & V_F & & & V_F & & & V_F & & V_F \end{array}$$

Gapning struktural turlarini farqlashda koordinativ elementlarning joylashuvi, miqdor tartibi shu bilan birga tayanch komponentning morfologik bazasi katta rol o'ynaydi. Uyushiq bo'laklarning so'z ma'nosidagi tayanch komponentini ifodalashda o'zini tayanch komponentiga munosabatda, aloqada bo'ladi, fe'l leksemalarda keng distributiv imkoniyatga ega bo'ladi. Faqat komponentlarning mazmuni belgilarini aks ettiradigan predisuemlik va predisirivlashning differensial sintaktik belgilari har doim ham uyushiq bo'laklarini tashqi tuzilishini aniq ko'rsatib bermaydi. NP1 (ega) NP2 (kesim) komponent modellari tahlil etiladigan gap strukturasida farq qilmaydi. Aynan shuning uchun gapning qatorida tarkibiy komponent belgilarni va ularning gaplarni komponent ifodalash usullarining morfologik belgilari formal belgilari aks ettiriladigan komponent modellarni yaratishda zaruriyat paydo bo'ladi. Bu uchun biz bir qator belgilarni keltiramiz. Muhim gap bo'laklari bosh harflar bilan ko'rsatiladi. S- ot, V- fe'l, Vf- fe'lning shaxsli shakli, Pnp-kishilik olmoshi, Pnps- egalik olmoshi, Pnind- noaniqlik olmoshi, Pnng- inkor olmoshi, Pndm- ko'rsatish olmoshi, A- sifat, Adv- ravish, Nu- son, Vp1-sifatdosh, Vp2- sifatdosh 2, Vpas- majhul nisbat: nutqning yordamchi qismlari kichik harflar bilan anglatiladi: m- modal fe'li, c- bog'lovchi fe'l, Pn- predlog.

2.3. Kesimi aralash fe'llar bilan ifodalanadigan uyushiq kesimli sodda gaplarning komponent tahlili

Biz yuqorida keltirilgan misollarimizda kesimi faqat sodda uyushiq fe'l bilan ifodalanadigan uyushiq kesimlarni tipologik jihatdan ikki tilda o'rganib, ularning differensial sintaktik birliklari va o'zoro sintaktik aloqalarini ko'rib chiqdik. Galdagi ishda esa uyushiq kesimlarni fe'l + fe'l bilan ifodalangan holatlarni kuzatamiz.

O'zbek tili grammatikasida ham fe'l + fe'l bilan ifodalangan gaplarda birinchi fe'l odatda anglashilgan harakatning bajarilishidagi turli qo'shimcha ma'nolarni (harakatning bajarilishidagi turli ma'nolarni harakatning boshlanishi, davomiyligi, tugaganligi kabi xilma-xil ma'nolarni) anglatadigan fe'llar bo'lib, bu kesim deb atash g'oyasini ilgari suradilar. Boshqa adabiyotlarda esa kesimning fe'l bilan ifodalangan yoki ot bilan ifodalangan shakli haqida ko'rsatilsada, yuqorida qayd etilgan kesim turi haqida hech narsa gapirilmaydi.

Ingliz tilshunos grammatikachilari bu kabi kesimlarni "Compound verbal predicate" ya'ni qo'shma fe'l kesim deb ataydilar. Buning asosiy sababi ish harakatning boshlanishi, davom etishini yoki to'xtashini ifodalovchi fe'llar ya'ni: *to begin, to start, to commence, to fall, to set about, to go on, to keep on, to proceed, to continue, to stop, to give up, to finish, to cease, to come* fe'llar aynan infinitiv bilan birikib ketishini hisobga olishdan iboratdir. Lekin aspekt kategoriyasini aniqlashda morfologik kategoriya sifatida qaralsa, albatta, zamon shakllari bazasida ottenkalaridan kelib chiqilsa to'g'ri bo'lar edi. Agar leksik qatlamda qaralsa fe'llarning lug'aviy ma'nosi e'tiborga olinadi. Lekin sintaktik qatlamda qaralsa unda ish harakatning boshlanishini, davom etishini va to'xtashini ifodalovchi fe'llar bilan bog'lanib kelgan fe'lning noaniq shakli gaplarda ajralmas birikmani yoki ular o'zoro sintaktik aloqalar asosida gap qurilmasiga kiritilganmi degan savol o'z-o'zidan izlanuvchi oldiga muammo qilib qo'yiladi. Bunday jumboqni yechish uchun quyidagi misollarni tahlil qilamiz.


1. *Mr Boffin stopped writing and began reading and spelling the letters.*
2. *... he stopped to light another cigar, and possible to ask himself. ...*
3. *Bella began taking up her work and looking at it....*

Misollardagi *writing, reading, spelling; to light, to ask; taking up and looking at*; kabi element o'zoro uyushib kelib bir-biriga nisbatan koordinativ aloqa orqali bog'lanadi hamda *stopped, began* unsuriga subordinativ aloqa bazasida gap qurilmasiga kiradi. Uyushib kelgan unsurlarni isbotlash uchun tushurish transformatsiyasidan foydalanamiz.

1. *Mr Boffin stopped writing and began reading and spelling...-Mr Boffin stopped writing ...Mr Boffin began reading -Mr Boffin began spelling...-*
2. *... he stopped to light another cigar, and possible to ask himself. -he stopped to light. ... he stopped. ... to ask;*
3. *Bella begun taking up her work and looking at it....Bella began taking up. ... Bella began looking at....*

Yuqorida keltirilgan birinchi gapning yunksion modeli quyidagicha:

12-chizma.



Ushbu gapning komponent modeli quyidagicha:

NP₁ . IHNP₂ . IIHNP₂ . IIHNP₂


S V_{f Ger} V_{f Ger} V_{f Ger}

Yuqorida keltirilgan ikkinchi gapning yunksion modeli quyidagicha :

NP₁ . IHNP₂ . IIHNP₂


P_{rpp} V_f V_{inf} V_f V_{inf}

13-chizma.



3-gapning komponent tahlili va yunksion modeli quyidagicha:

14-chizma.



$\underline{NP}_1 \cdot \underline{IHNP}_2 \cdot \underline{IIHNP}_2$

S $V_f G_{er}$ $V_f G_{er}$

Turkalogiyada esa bunday turdagi kesimlarni ayrim tilshunoslar murakkab kesim deb atashsa, boshqa bir tilshunoslar sodda fe'l kesim deb talqin qilishadi.

Umuman olganda o'zbek tilshunosligida qo'shma tarkibli murakkab kabi atamalar bilan izohlangan va ularning so'z birikmalaridan farqi haqidagina fikr yuritilgan.

Ammo keyingi vaqtlarda S. Usmonov so'zlarining sodda, qo'shma, murakkab turlarning analitik, sintaktik, shakllarini ajratadi va ularning tub farqi sintaktik funksiyalari haqida fikr yuritadi [30,163].

Ingliz tilidagi fe'lda fe'l shaxssiz shakli bilan ifodalangan uyushiq kesim turiga o'zbek tilida fe'lning ravishdosh shaklida fe'l turiga mos keladi, ammo o'zbek tilida ham bu kesim turini nomlashda turlicha qarashlar mavjud. Masalan: B. Egamberdiyev kesimlarning maxsus izlanishida "*olib qaytdi*", "*borib keldi*", "*borib ketdi*" kabilarni ikki bog'langan harakatni ifodalovchi ikki kesim deb izohlaydi [17,196]. Omonturdiyev J. esa "*kelib ketmoq*", "*o'qib ko'rmoq*" kabi birikmalarni murakkab kesim deb hisoblasa, biroq bunday shakllarning murakkab kesim hisoblanishi biroz e'tirozli deydi. Bunga sabab shu shaklning analitik xarakteridir. Chunki analitik unsurlar tarkibli kesim tushunchasini eslatib turadi. Omonturdiyev J. kesimlarning strukturasiga ko'ra klassifikatsiyasida yuqoridagilarga to'xtalib o'tgan [22,38].

Haqiqatdan ham "*o'qib ko'rmoq*" birikmasi "*o'qib edi*" tipidagi analitik shakl bilan bir xil hodisa emas, chunki ular bir-biriga teng bo'lmagan boshqa morfologik hodisadir.

Yig'ilgan misollar asosida qaraganimizda, ingliz tilidagi uyushiq kesim turiga mosini tanlamoqchi bo'lsak, o'zbek tilida ravishdoshlarning -a,- y,-b, -ib shakllariga *bormoq*, *olmoq*, *o'tirmoq*, *tashlamoq*, *qo'ymoq*, *boshlamoq*, *kelmoq*, *bo'lmoq* *qolmoq* *ketmoq* *yurmoq* *yubormoq* *turmoq* kabi fe'llarning shaxsli shakllari yordamida beriladi.

1. *Lablariga oqib tushgan sho'rtang tomchilarini kafti bilan artar ekan, beixtiyor quloq soldi* [62,156].
2. *Uni olib chiqib qo'yib yuborishdi* [62,60].
3. *Agar boshqa soatsozga borganingizdami, mendek sinchiklab qarab o'tirmasdan, yuz so'm berib sizni jo'natib yuborar edi* [62,79].
4. *Charchaganidanmi, yo havo yetishmay qolganidanmi terlab ketdi, nafas olishi qiyinlashdi, hansiray boshladi* [62,133].
5. *U qariganda nafas qisadigan kasalga duchor bo'lib qolgan, yotib uxlay olmasdi* [62,99].
6. *U ham hayajon ichida turgan ekan, qarsak chalib yubordi* [62,53].
7. *Aliyev cholning dona-dona gaplarini bo'lmay eshitib o'yga tolib qoldi* [62, 84].
8. *Sultonov ryumkalarining o'rniga 2 ta qizil gulli piyola olib kelib, aroqdan to'ldirib qo'ydi* [62,56].
9. *...bo'ynidan tasmani tortib, uzmoqchi bo'ldi, kuchi yetmay kishnab yubordi* [62,36].
10. *Esini tanib unda xizmat qila boshlabdiki, bu odatini kanda qilmaydi* [62,31].

Keltirilgan misollarimizda *artar ekan, quloq soldi, olib chiqib, qo'yib yuborishdi, -qarab o'tirmasdan, jo'natib yuborardi, terlab ketdi, nafas olishi qiyinlashdi, hansiray boshladi-duchor bo'lib qolgan, yotib uxlay olmasdi -turgan ekan, qarsak chalib yubordi –bo'lmay eshitib, o'yga tolib qoldi- olib kelib, to'ldirib qo'ydi -uzmoqchi bo'ldi, kishnab yubordiki- qila boshlabdiki, kanda qilmaydi* kabi unsurlar o'zaro uyushib kelgan xilma -xil qurilmalar va ularning kombinatsiyasi bilan ifodalangan uyushiq kesim konkret tekshirilganda ularning xususiyatlarini faqat sodda tarkibli, murakkab birikmali terminlar asosida to'liq ko'rsatib bo'lmaydi. Chunki bu terminlar bilan ataladigan faktorlar qat'iy qolipdagi shakllar emas. Ular tez-tez yoyiq shaklga kiradi, kengayadi, murakkablashadi. Shu sababli ham ayrim tilshunoslar ularni murakkablashgan sodda kesim murakkab tarkibli kesim terminlari bilan atashni tavsiya etadilar.

Uyushib kelgan unsurlarni isbotlash uchun tushurib qoldirish transformatsiyasidan foydalanamiz.

Lablariga oqib tushgan sho'rtang tomchilarini kafti bilan artar ekan, beixtiyor quloq soldi.

U lablariga oqib tushgan sho'rtang tomchilarini kafti bn artar ekan; beixtiyor quloq soldi.

Uni zinadan olib chiqib, qo'yib yuborishdi. - Ular uni zinadan olib chiqib; Ular qo'yib yuborishdi.

Agar boshqa soatsozga borganingizdami mendek sinchiklab qarab o'tirmasdan, yuz so'm berib sizni jo'natib yuborardi. –U mendek sinchiklab qarab o'tirmasdan; yuz so'm berib sizni jo'natib yuborardi.

Charchaganidanmi, yo havo yetishmay qolganidanmi terlab ketdi, nafas olishi qiyinlashdi, hansiray boshladi- U terlab ketdi; U hansiray boshladi;

U qariganda nafas qisadigan kasalga duchor bo'lib qolgan, yotib uxlay olmasdi.- U duchor bo'lib qolgan; U yotib uxlay olmasdi.

U ham hayajon ichida turgan ekan, qarsak chalib yubordi. – U turgan ekan; U qarsak chalib yubordi.

Aliyev cholning dona-dona gaplarini bo'lmay eshitib o'yga tolib qoldi.- Aliyev cholning dona-dona gaplarini bo'lmay eshitdi; - Aliyev o'yga tolib qoldi.


Sultonov ryumkalarining o'rniga 2 ta qizil gulli piyola olib kelib, aroqdan to'ldirib qo'ydi. – Sultonov olib keldi. – Sultonov to'ldirib qo'ydi.

Bo'ynidan tasmani tortib, uzmoqchi bo'ldi, kuchi yetmay kishnab yubordi- U uzmoqchi bo'ldi; - U kishnab yubordi.


Esini tanib unda xizmat qila boshlabdiki, bu odatini kanda qilmaydi. – U xizmat qila boshlabdiki; - U kanda qilmaydi.

Tushurib qoldirish transformatsiyasining natijasi uyushiq kesim o'rnida kelgan unsurlarning faqat sintaktik qatlamdagi ajralmas birikmalar deb aytish mumkin. 1,2,3,4,5,6,7,8,9, gaplarning yunksion modeli bir xil.

15-chizma.



10 gapning yunksion modeli esa ulardan farqli bo‘lib quyidagicha ifodalanadi.
16-chizma.



Ularning komponent modellari quyidagicha beriladi.

$$1. \underline{NP_1} . \underline{IHNP_2} . \underline{IIHNP_2}$$

$$P_{np} \quad V_f \quad V_f$$

$$2. \underline{NP_1} . \underline{IHNP_2} . \underline{IIHNP_2}$$

$$P_{np} \quad V_f \quad V_f$$

$$3. \underline{NP_1} . \underline{IHNP_2} . \underline{IIHNP_2}$$

$$P_{np} \quad V_f \quad V_f$$

$$4. \underline{NP_1} . \underline{IHNP_2} . \underline{IIHNP_2}$$

$$P_{np} \quad V_f \quad V_f$$

$$5. \underline{NP_1} . \underline{IHNP_2} . \underline{IIHNP_2}$$

$$P_{np} \quad V_f \quad V_f$$

$$6. \underline{NP_1} . \underline{IHNP_2} . \underline{IIHNP_2}$$

$$P_{np} \quad V_f \quad V_f$$

$$7. \underline{NP_1} . \underline{IHNP_2} . \underline{IIHNP_2}$$

$$S \quad V_f \quad V_f$$

$$8. \underline{NP_1} . \underline{IHNP_2} . \underline{IIHNP_2}$$

$$S \quad V_f \quad V_f$$

$$9. \underline{NP_1} . \underline{IHNP_2} . \underline{IIHNP_2}$$

$$P_{np} \quad V_f \quad V_f$$

10. NP₁ . IHNP₂ . IIHNP₂ . IIHNP₂

P_{np} V_f V_f V_f

O'zbek tilidagi harakatning boshlang'ich fazasini ko'rsatuvchi fe'llarning ma'nosi ingliz tiliga ikki asosiy fe'l yordamida ifoda etiladi. Bulardan bittasi, ya'ni *begin-boshlamoq*, *boshla*, *kel* kabi fe'llarning ma'nosini ifoda etishda qo'llanilaveradi. Ikkinchi fe'lning qanday bo'lishi, o'zbek tili yetakchi fe'lga bog'liqdir. O'zbek tilida yetakchi fe'l ravishdosh formasida bo'lib, ko'makchi fe'l tusalansa, ingliz tilida, o'zbek tili ko'makchi fe'li ishlatiladigan *begin* fe'li tuslanib, ikkinchi asosiy fe'l *to* yuklamasi infinitiv, formasida yoki *-ing* *-gerundiy* formasida ifoda etiladi. Qiyoslang: *U gapira oladi. He begins to speak, gullab kelyapti- it begins to flourish, qorong'u tushyapti- it is getting dark, ishlay boshladi- He begins to work; O'ynay ketdi-She begins to dance; to go, to want; to like* kabi harakat ma'nosini anglatadigan fe'llardan keyin ham infinitiv ishlatiladi.

Infinitivning bunday fe'llar bilan birga qo'llanilishi o'zbek tiliga harakat nomini jo'nalish kelishik formasi yordamida ifoda etiladi. Qiyoslang:

She goes to buy something; They go to do shopping.

U biror narsa sotib olishga boradi; Ular savdo sotiq qilishga boradi.

Tushum kelishikli konstruksiyada ham infinitiv yuklamasiz qo'llaniladi. Infinitivning bunday konstruksiyasida ishtirok etadigan fe'llar ko'p bo'lmay ular: *to hear, to feel, to see*, kabilardir. Bunda tushum kelishigini talab qiladigan va shaxsli hisoblangan fe'l darak gaplarda ikkinchi o'ringa qo'yilib, infinitiv formasidagi fe'l gap oxirida keladi. Infinitivning bu konstruksiyasi o'zbek tilida harakat nomi + egalik ko'makchisi + kelishik ko'makchisi yordamida ifoda etiladi: Qiyoslang:

-We saw him enter the room-biz uni xonaga kirishini ko'rdik.

-We heard you sing a song-biz sening qo'shiq aytganingni eshitdik.

-He taught the children to swim-u bolalarni suzishga o'rgatdi.

-We taught them to use the books-biz ularni kitobdan foydalanishga o'rgatdik.

Ingliz va o'zbek tillarida aralash uyushiq kesimlarning tipologik nazariyasi barcha turdagi aralash uyushib kelgan kesimlar haqida so'z yuritir ekanmiz, biz

oldin ingliz o'zbek tillarida kesim turlariga to'xtalib o'tishimiz zarur. Bizga ma'lumki, kesim gap qurilmasida ya'ni grammatikaning sintaksis bo'limida o'rganiladi, kesim -“Predicate” gapning asosiy harakatini ifodalovchi manbadir.

“Каушанская В. В. va boshqalarning “The English Grammar” kitobida kesim quyidagicha ifodalanadi: *“The predicate is the second principal part of the sentence which express an action, state or quality of the person or thing denoted by the subject. It is grammatically dependent upon the subject”* [45,229].

Bunda kesim gapning bosh bo'lagi hisoblanib, shaxsning, predmetning holatini, harakatini yoki ega ifodalayotgan narsalarning xususiyatini ifodalab keladi. Shu tariqa “kesim” haqida bir qancha manbalarda, ya'ni J. Bo'ronovning “Ingliz tili grammatikasi” kitobida va boshqa manbalarda turli xil fikrlar aytib o'tilgan. Ko'pincha tilshunos olimlar “Predicate”ning strukturasi va ma'nosiga ko'ra turlarga ajratganlar. Ya'ni J. Bo'ronov “Ingliz tili grammatikasi”da [15,256], Каушанская va boshqalar “The English Grammar” kitoblarida shunday ta'rif berilgan. Uyushiq kesimlar haqida Kaushanskaya “A Grammar of the English language” kitobida *“Two or more parts of sentence are called homogeneous parts of sentence. They are linked either by means of coordinating conjunction or asyndetically”* deb yozadi [45,240].

There can be:

1. Two or more homogenous subjects to one predicate.

To her extreme relief, her father and sisters appeared.

Canon Doyle and they were much more interesting than the story Sam had told.

2. Two or more homogenous predicate to one subjects

- a) Simple predicates.

...and there they read and told each other stories.

Dill took piece of paper and gave it to Jem.

Then the went to the blackboard, wrote the alphabet in big letters, turned to the class and asked....

- b) A compound verbal predicate homogeneous parts within in it.

Thousands of sheets must be printed, dried out.

Jim can run very fast and can jump high.

They had had only a few German lessons yet and could neither read nor speak.

c) A compound verbal predicate with homogeneous parts with it.

First he began to understand and then to speak English.

d) A compound nominal predicate with several predicative's within it.

The sky was clear, remote and empty.

The question was painful and difficult to ask.

The above mentioned cases do not corner all possible cases of homogeneous predicates".

Endi o'zbek tilida berilgan uyushiq kesimlar haqidagi tushunchalarga e'tiboringizga qaratsak:

O'zbek tili grammatikasi II tom Fan nashriyoti Toshkent 1976 O'zbekiston Fan Akademiyasi Pushkin Grammatikasi ensiklopediyasida uyushiq kesimlar haqida shunday fikr yuritilgan. "Bir yoki bir necha egaga barobar tobe bo'lgan birdan ortiq kesim uyushiq kesim deyiladi. O'zbek tilida ham uyushiq kesimlar material jihatdan uch xil bo'ladi [32,163].

1. Uyushiq fe'l kesimlar. Bunga barcha komponentlari fe'l bilan ifodalangan uyushiq kesimlar kiradi.

Shu kuni kechasi yotar mahalda, To'xtabuvini vahima bosdi; bularku hammasi va'da berdi, sayladi.

2. Uyushiq ot kesimlar. Bunga barcha komponentlari ot bilan ifodalangan uyushiq kesimlar kiradi.

Biz shod, baxtiyormiz.

3. Uyushiq aralash kesimlar. Bunga ba'zi komponentlari ot bilan, boshqa komponentlari fe'l bilan ifodalangan uyushiq kesimlar kiradi.

Men talabaman oliygohda o'qiyman.

Uyushiq kesim komponentlari zamon, daraja, mayl, bo'lishli-bo'lishsizlik jihatdan ko'pincha bir xil ba'zan esa xar xil, lekin shaxs son jihatdan doim bir xil bo'ladi.

Bu gapni bir aytdingiz, yana qaytarib gapirmang.

Nizomjon gapira olmas, dir-dir titrar edi.

Uyushiq fe'l kesimlarning oldingi komponenti (yoki komponentlari) ravishdosh bilan ifodalanishi mumkin.

Shu paytda eshik qiya ochilib yana yopildi.

Sodda gap tarkibidagi ravishdosh kesimni tuslanuvchi fe'l kesimga aylantirish mumkin. Bu grammatik holatga ham, ma'noga ham ta'sir qilmaydi;

Qiyoslang:

*Abdulla Qahhorning ijodi xalq hayoti bilan birga ko'tarilib, birga ulg'aydi. -
Abdulla Qahhorning ijodi xalq hayoti bilan birga ko'tarildi birga ulg'aydi.*

2.4. Kesimi uyushiq modal fe'l + infinitiv bilan ifodalangan uyushiq kesimli sodda gaplarning komponent tahlili.

Ingliz tili grammatikalarida gaplarda uyushiq kesim o'rnida modal fe'l + infinitiv bilan birikib kelgan unsurlarni qo'shma fe'l, modal kesim deb nomlaydi. Mazkur turdagi kesim modallik kategoriyasining ifodalashning bir turi hisoblanadi. Modallik tushuncha kategoriya bo'lib, so'zlovchi aytadigan fikrning mazmuniga bo'lgan obyektiv munosabatini va aytiladigan fikrning voqelikka bo'lgan munosabatidir.

Ingliz tilida modallik kategoriyasi grammatik qatlamlarning ifodalanishiga ko'ra to'rt usulga bo'linadi.

1. Morfologik usul mayl kategoriyasi bilan bog'langan fe'l shakllari orqali ifodalanadi.
2. Leksik usul (Modal so'zlar ishonchni ehtimollikni tasdiqni hamda subyektiv bahoni ifodalovchi kabilar yordamida ifodalanadi).
3. Modallikning sintaktik usuli.
4. Leksik grammatik usul modal fe'llar fe'lning noaniq shakli bilan birikib keladi.

E. A. Zverova, O. N. Truevseva, N. S. Shukoevalarning fikricha german tillarida modal fe'llar asosan preterito-present guruhiga tobe bo'lib ma'lum sintaktik vazifani bajaradi [43,27]. Modal fe'llarning leksik ma'nolariga

qaraganimizda ular ham modallikning zaruriyat, imkoniyat, mumkinlik, xohish-istak ma'no ottenkalarini ifodalab gaplarda tarkibli modal fe'lli uyushiq kesimning bir qismini ifodalaydi. Modal fe'llar masalasini aniqlashda ingliz tili nazariy va amaliy grammatikalarida *must, can, may, might, shall, will, need*, fe'lni ham modal fe'llar guruhiga kiritadi.

Preterito-present fe'llariga esa *must, can, may, might, shall, will, dare ought to* 8 ta fe'lni kiritadi. Bu guruhga *need* fe'li kiritilmaydi. Ko'makchi fe'llarning ma'lum bir gruppasi so'zlovchining harakatga bo'lgan turli munosabatlarini ko'rsatuvchi ma'nolarini, ya'ni modal ma'nolarini ifodalaydi. "Ol" ko'makchi fe'lli ravishdoshning -a, -y affikslari orqali yasalgan turiga birikib, harakatni bajarishga qodirlikni ifodalaydi: *u o'qiy oladi – he can read, u yoza oladi- he can write, sen kuylay olasan- you can sing*. "Bil" ko'makchi fe'li -a, -y formantlari bilan yasalgan ravishdoshga qo'shiladi va imkon, qodirlikni ifodalashga xizmat qiladi: *kela biladi, bora bilmaydi, o'qiy biladi* kabi. Bu ko'makchi fe'lga xos ma'noni ham ingliz tilida *can* modal fe'li yordamida ifodalash mumkin: *U ishlay oladi- He can work, sen yoza bilasan- you can write*.

"Bo'l" ko'makchi fe'lga xos ma'no ingliz tilida *may, might* yordamida ifoda etiladi. Qiyoslang:

O'qib bo'ladi- You may read; eshitib bo'ladi. – it may be hear;, hisoblab bo'ladi- it may be counted.

Ingliz tilida *will want* modallik fe'li yordamida "Qol" ko'makchi fe'lining shu ma'nosiga yaqin ma'no ifodalanishi mumkin: *Yur tezroq, vagondan joy olib qolaylik.*

Umuman olganda modal fe'llar gapda o'zlari yaxlit bir sintaktik vazifani bajarmaydi. Ular har doim infinitiv bilan birikib kelib, o'zlarining modal ma'nolarini infinitiv bilan birgalikda ifodalab gapda kesim vazifasida keladi.

1. *She must write and send the letter* [59,48]
2. *They must sweep and clean the yard* [59,55].

Mazkur misollar o'rtasidagi sintaktik aloqalar bir xil.

Ularning differensial sintaktik va morfologik belgilari ham bir xil.

O'zbek tilida modallik kategoriyasi o'z ifodalanishiga ifodalanishiga ko'ra ikki turga ajratish mumkin.

1) Morfologik;

2) Leksik;

O'zbek tilida modal fe'llarning yo'qligi barcha grammatikalarda e'tirof etilgan bo'lsada, modal so'zlar deb *kerak, lozim, zarur, mumkin, shart* kabi so'zlar gapda kesim yoki kesimning bir qismi bo'lib kelishi tan olingan ayniqsa Xojiyev o'zining "Fe'l" nomli monografiyasida fe'lning imkonlik va imkonsizlik kategoriyasi haqida fikr yuritib *yoza oldi-yoza olmadi* kabi shakldagi "ol" ko'makchi fe'li so'zlovchining harakatga bo'lgan munosabatini, harakatni bajara olish imkoni ma'nosini ya'ni modal ma'noni bildiradi deb ta'kidlanadi [14,90]. Ayrim tadqiqotchilar "*o'qish kerak*" "*o'qishim kerak*" kabi birikmalarni tarkibli kesim turiga kiritib ularni "mustaqil so'z + predikativ + modal so'zlar" deb ta'riflaydi [22,40-42].

O'zbekiston fanlar akademiyasi grammatikasida bunday birikmalarni tarkibli ot-kesimning bir turi ya'ni *ish oti (+ egalik affiksi) +kerak, zarur, lozim, mumkin, shart* kabi so'zlar yordamida ifodalanadi deb izohlaydi [14,9]. Lekin "*yoza oladi*", "*o'qishi kerak*" kabilarni haqiqatga yaqinroq qilib G'ulomovA., Asqarova M.lar tarkibli fe'l kesim turiga kiritiladi. [34,256].

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, ular "fe'lning shaxssiz shakli+modal so'zlar" bilan ifodalangan kesimni "*pisha boshladi, o'qib bo'ldi, yozdi-qo'ydi, o'qib tashladi*" kabilar bilan tenglashtirib, kesimi "fe'l + fe'l" bilan ifodalangan tarkibli fe'l kesim deb ataydi [13,88].

Ma'lumki o'zbek tilida fe'llarning *-a, -y, -b, -ib* kabilar bilan tugallangan fe'llarni sifatdosh deb ataymiz va ular yuqorida qayd etilgan qo'shimchalar hamda shaxs, son, mayl kategoriyalarini ko'rsatuvchi ko'makchi fe'llar bilan birikib kesim vazifasida keladi. Fe'lning *-sh, -ish, -moq*, qo'shimchalari bilan berilgan shakllarini ham fe'llarning tuslanmaydigan shakllariga qo'shib fe'lning noaniq shakli yoki infinitiv deya atasak haqiqatdan uzoq bo'lmaydi. Demak ingliz tili bilan qiyoslab qaralsa, biz o'zbek tili grammatikasida ham fe'lning shaxssiz

shakllari infinitiv, sifatdosh va ravishdoshlar mavjudligining guvohi bo‘lamiz. Shuni ta’kidlash joizki, harakatni bildirishi jihatidan ravishdosh ham, sifatdosh ham, infinitiv ham tuslanadigan fe’llardan farq qilmaydi. Gapda ravishdosh ham, sifatdosh ham kesim vazifasida kelganda ular ko‘makchi fe’llar bilan birikib, bir komponentni tashkil etadi. Fe’llarning *-sh, -ish, -moq* shakllari, ya’ni fe’lning noaniq shakli asosan modal so‘zlar ya’ni *kerak, lozim, shart, mumkin, zarur* kabilar bilan birikadi va gapda kesim o‘rnida fe’lning noaniq shakli va modal so‘zlar bilan bir komponent hisoblanadi. Zotan ingliz tilida yuqorida qayd etilgan modal so‘zlarni modal fe’llar deb atashgan. Ammo ular ham o‘zlari mustaqil ma’no anglatib kela olmaydi. Xuddi o‘zbek tilidagi kabi modal fe’llar infinitiv bilan birikib bitta komponentni ifodalab keladi.

Bunday ma’lumot ya’ni infinitiv haqida o‘zbek tili grammatikasi (sintaksis qismi) “Infinitiv gaplar” rubrikasida qisman yoritilgan. [32, 196]

Pirovardida shuni ta’kidlash lozimki, modal so‘zlar deb atalish *kerak, lozim, shart, mumkin, zarur, darkor, qila olmoq* kabilarni *darhaqiqat, albatta, ehtimol, balki, shubhasiz* kabi modal so‘zlar bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Chunki modal so‘zlar gapda erkin holatda gapning qaysi qismiga taaluqli bo‘lsa, o‘sha qism bilan birikadi va vergul bilan ajratiladi:

Albatta, men bu kitobni o'qiyman.

Men, albatta, bu kitobni o'qiyman.

Men bu kitobni o'qiyman, albatta.

Cho'lni obod qilish savob, albatta, qani quda bolalarga fotiha beraylik.

Albatta, cho'lni obod qilish savob, qani quda bolalarga fotiha beraylik. Cho'lni obod qilish, albatta, savob, qani quda bolalarga fotiha beraylik.

Misollardan ko‘rinib turibdiki, bu kabi modal so‘zlar, o‘zlari mustaqil gapda ohangiga qarab qaysi sintaktik birlik bilan birga kelsa o‘sha gapning yoki so‘zning ma’nosini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Ingliz tilida ham xuddi ushbu ma’nodagi modal so‘zlar mavjud. *Certainly, perhaps, surely, of course* kabi modal so‘zlarni ham ingliz tilida mavjud modal fe’llar bilan tenglashtirib bo‘lmaydi.

Ushbu modal soʻzlar ham vergul bilan ajratiladi-yu, ammo ingliz tilidagi gaplarda ular koʻp hollarda gap boshida yoki alohida gap boʻlib keladi.

Certainly, we can play the guitar.

Of course, they will come in time.

Kerak, lozim, shart, mumkin, zarur, soʻzlari doimo modallikni ifodalashga xizmat qiladi. Garchi bu soʻzlarda modal soʻzlik xususiyati kam boʻlsada, bular xilma-xil modal munosabatlarni (zarurat, imkoniyat, mumkinlik, qatʼiylik kabi) bildiradi:

Chol aqlli odam, unga oʻrgatish ham mumkin, undan koʻp narsani oʻrganish ham mumkin.

Juda ham bu ishga berilmaslik kerak, - oʻz-oʻziga xitob qildi Umid, -Men ishlashim, ish qilishim zarur.

Zaruriyat maʼnosini ifodalovchi *kerak, zarur, darkor, lozim* kabi soʻzlar ham modal soʻz emas, balki modal maʼnoli soʻzdir. Chunki modal soʻzdan farqli ravishda yuqoridagi soʻzlar gap boʻlagi boʻlib yoki gap boʻlagi tarkibida keladi, demak, gap boʻlaklari bilan sintaktik bogʻlanadi. Masalan: *borishim kerak* yoki *borish kerak* kabi konstruksiyalarda “kerak” soʻzi kesim tarkibida keladi (birinchisi shaxsli gap, ikkinchisi esa shaxssiz gap), kitob kerak kabi konstruksiyalarda “kerak” soʻzining oʻzi kesim vazifasida keladi. Modal soʻz esa bunday vazifalarda umuman kelmaydi.

Badiiy asarlardan yigʻilgan misollarimizda zaruriyatni ifodalashda *shart, zarur, darkor, mumkin, lozim* kabi modal maʼnoli soʻzlar yuqorida qayd etilgan *zarur, lozim, mumkin, darkor* kabi soʻzlarga oʻxshagan holda gaplarda kesim oʻrnida keladi.

1. *Demak, bir kunda necha kombayn boʻlmasin bu yerga chiqolmaydi, oʻrolmaydi* [8,8]
2. *Zuhraga u bugundan boshlab hech narsa oʻrgatmasligi, nasihat qilmasligi kerak* [8,50]
3. *Zuhra yugurib ukasi oldiga borgisi, har birini quchoqlab oʻpgisi keldi.*
4. *Istagan joyga borishim, istagan joyda yotib qolishim mumkin.*


5. *Xonasini ham yig‘ishtirib, seyfni ham tozalab qo‘yishi kerak edi.*

Ikkinchi tilni qiyosiy o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida modal fe’llar har doim infinitiv bilan birikib kelsa, o‘zbek tilida modal so‘zlardan *kerak, lozim, shart, mumkin, zarur* kabilar gapda kesim vazifasida kelishi, hamda kesim o‘rnida ravishdosh, sifatdosh, infinitiv hamda *ermoq* to‘liqsiz fe’llar bilan birikib, bir komponentni tashkil etishi mumkin. Ingliz tilidagi *must, shall, should*, modal fe’llarining ekvivalenti “*to have + to + infinitiv*” gapda fe’lning noaniq shakli bilan birikib uyushiq kesimni tashkil etishi mumkin.

Fotima uyiga borish uchun ikki muyilishdan o‘tishi, keyin katta ko‘chaga chiqib, o‘z ko‘chasiga burilishi lozim edi.

Bu misolni yunksion va komponent modeli quyidagicha:

17-chizma.



$\underline{NP_1} . \underline{IHNP_2} . \underline{IIHNP_2}$

S mV_{inf} mV_{inf}

2.5. Kesimi *to be+ot* bilan ifodalanadigan uyushiq kesimli sodda gaplarning komponent tahlili

Navbatdagi aralash uyushiq kesimlar, bog‘lama fe’llar va sifatlar, otlar va boshqa so‘z turkumlari bilan ifodalangan uyushiq kesimlardir.

Quyida bir necha misollarni ko‘rib o‘tamiz.

He was modest and shy.

Only Jimmy was gloomy and silent.

The night was cold and still.

Ko‘rinib turibdiki, bu yerda uyushiq kesimlarni *to be + bog‘lama fe’li* va sifatdan iborat otlashgan kesimlar ifodalagan. Ulardagi sifatlar *to be + bog‘lama*

fe'liga bir xil munosabatda koordinativ aloqadadir. Biz ularni isbotlash uchun tushirib qoldirish transformatsion metoddan foydalanamiz.

1. *He was modest and shy... - He was modest...he was...shy,*
2. *Only Jimmy was gloomy and silent.- Only Jimmy was gloomy-Jimmy was..still.*

Quyida bu gaplarning yunksion va komponentmodellarini keltirib o'tamiz. Bu uchala bu misollar bir xil modellarga ega.

NP1 . IANP2.IIANP2


S Adj Adj

Endi o'zbek tilida ham xuddi shu kabi holatlar mavjudmi yoki yo'qligini ko'rib chiqamiz. O'zbek tilida bog'lama fe'llarning aniq bir formasi bo'lmasada, ular *-bo'lmoq*, *-dir* kabi so'zlar bilan ifodalanadi. Ba'zan ular umuman sezilmaydi. Quyida bir qancha misollarni keltirib o'tamiz.

1. *Bu bola pishiq, puxta ... Bu bola pishiq... Bu bola pishiq puxta Bu bola puxta.*
2. *Hujra tor va zahkash....Hujra tor... Hujra tor va zahkash ... Hujra zahkash.*
3. *Hirok kar va soqov....Hirok kar...Hirok soqov va kar ...Hirok ...soqov.*

Yuqorida keltirilgan gaplarning ham yunksion ham komponent modellari bir xil.

18-chizma.



NP1 . IANP2.IIANP2

S Adj Adj

Ingliz tilida sifatdan oldin bog'lama fe'l majburiy bo'lsa o'zbek tilida bundan mustasno. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, bog'lama fe'lsiz uyushiq kesim sifat

bilan ifodalanganda umumiy hozirgi zamon shaklida ifodalanadi. Ammo o'tgan yoki kelasi zamonlarda ifodalanganda yordamchi fe'llar "bo'lmoq, erishmoq; qolmoq, qilmoq" kabilar yordamida uyushiq kesim o'rnida kelgan sifatga nisbatan postpozitsiya holida bo'ladi:


1. *Sinf rahbari Ruqiya Sharipova ham direktor kabi hayron va azobda edi* [65,78].
2. *Juda mo'min kamtar-kamsuqum edi* [65,21].
3. *...butun harakati nozik va nafis edi.*
4. *Ayvon baland emas, keng ham emas*[65,124].

Gaplarda uyushiq kesim o'rnida kelgan sifatlarning o'zoro koordinativ aloqa asosida bog'langanligini, ularning gapda teng huquqli ekanliklarini isbotlash maqsadida quyidagi tushirib qoldirish transformatsiyasidan foydalanamiz.

1. *Sinf rahbari Ruqiya Sharipova ham direktor kabi hayron va azobda edi...*
Sinf rahbari Ruqiya Sharipova direktor kabi hayron edi... *Sinf rahbari Ruqiya Sharipova direktor kabi ...azobda edi*
2. *Juda mo'min, kamtar-kamsuqum ekan...* *Juda mo'min...ekan, Juda mo'min, kamtar-kamsuqum ekan...* *Juda ...kamtar-kamsuqum ekan.*
3. *Butun harakati nozik va nafis edi...* *Butun harakati nozik...edi. Butun harakati nozik va nafis edi...* *butun harakati ... nafis edi.*
4. *Ayvon baland emas, keng ham emas...* *Ayvon baland emas..., Ayvon baland emas, keng ham emas...Ayvon.... keng ham emas.*

Keltirilgan gaplarning yunksion va komponent modellari quyidagicha.

19-chizma.



Misollarimizda tashqi struktural jihatdan tahlilga ko'ra, ingliz tilida bog'lama fe'llar majburiydir, o'zbek tilida esa faqat kelasi yoki o'tgan zamon shakllaridagina majburiy hisoblanadi. Bog'lama fe'llarning gapda sifatga nisbatan o'rni ingliz tilida propozitsiya holatida kelsa, o'zbek tilida esa postpozitsiya holatida keladi yoki ifodalanadi. Yana shuni qayd etish lozimki, ingliz tilida asosiy bog'lama fe'l *to be* bo'lsa, boshqalarni shu fe'l bilan almashtirish mumkin. Yuqorida keltirilgan misollarimizdan tashqari ingliz va o'zbek tillaridaga badiiy adabiyotlarda quyidagi aralash uyushiq kesimlar ham uchraydi.

Ingliz tilida:

1. Sodda fe'l + fe'l + begin + gerundiy.

Mrs Boffin, the quite a young woman. Knells down at the fire, warms her two open hands and begins rubbing her cheeks.

Bella went and sat down by her father, and began touching up his hair with the handle of a fork.

2. Sodda fe'l + modal + to be + ot.

Jimmy and Lily quarrelled a lot, for each one wanted to be a hero. [27, 364].

3. Sodda fe'l + Infinitiv + to be + sifat.

We've got watch things and be ready.

4. Qo'shma aspekt fe'l + infinitiv + sodda fe'l.

Polly begins to whimper and looks very poor [27, 251].

5. Sodda fe'l + sodda fe'l + to be + ot.

We ran across the scholyard, went under the fence behind our house and were at the back steps before Jem would let us rest.

6. Modal + stop + gerundiy + gerundiy.

He out to stop doing nothing and criticizing everybody. [27, 351].

7. Sodda fe'l + modal fe'l + gerundiy + gerundiy.

They had had only a few German lessons yet and could neither read nor speak. [27, 395].

8. Sodda fe'l + sodda fe'l + infinitiv + predlog + gerundiy.

I didn't say anything and tried to keep Mona from saying anything either.

9. Sodda fe'l + to be + sifatdosh II + gerundiy + sodda fe'l.

The servant goes to the door, is head speaking angrily to somebody unseen, and goes out.

10. Sodda fe'l + to be + ot + Modal fe'l + infinitiv.

Atticus greeted Walter and began a discussion about crops, neither Jem nor I could follow [59,67].

11. Sodda fe'l + sodda fe'l + bog'lama fe'l + ot.

The figure at the red fire turned, raised its ruffled head, and looked like a bird of prey [59,29]

12. Bog'lama fe'l + sifat + modal fe'l + infinitiv.

Bella was silent, but she might have added something.

13. Modal fe'l + infinitiv + infinitiv.

You will probably keep a large house, have many matters to arrange.

14. Sodda fe'l + fe'l + bog'lama fe'l + sifat.

Jem And I found our father good enough; he played us, read to us, and always kind [59,84].

Keltirilgan misollarda biz ingliz tilida berilgan uyushib kelgan kesimlarning, faqatgina sodda fe'l kesim bilan ifodalanib kelmasdan balki aralash fe'l kesimlar ya'ni modal fe'l va infinitiv, bog'lama fe'l va sifatdosh kabi bir qancha uyushib kelgan kesimlarning guvohi bo'ldik.

Shu bilan birga nafaqat ingliz tilidagi balki o'zbek tilida ham mavjud aralash uyushiq kesimlar tipologiyasini ko'rib o'tdik. Ingliz tiliga nisbatan o'zbek tilida aralash uyushiq kesimlar turi xilma-xilligini guvohi bo'ldik.

II bobga xulosa

Ushbu bobda kesimi modal fe'l va infinitiv bilan ifodalangan aralash uyushiq kesimli sodda gaplar, kesimi uyushiq sodda fe'l bilan ifodalangan, kesimi aralash fe'llar bilan kesimi to be + ot bilan ifodalangan uyushiq kesimlar va bu uyushiq kesimlarning gapdagi tutgan o'rni haqida tilshunos olimlarimizning fikr va mulohazalari keltirib o'tildi va bo'limlarida har bir uyushiq kesimlar ishtirok etgan

sodda gaplar komponentlarga ajratib tahlil qilindi. Bu tahlil yordamida aralash kesimlarning turlari va ularning gapda uyushib kelish holatlari o'zbek va ingliz tillaridagi qiyosi ilmiy nazariy jihatdan o'rganildi. Badiiy asarlardan olingan misollar mavzuni yanada ochib berishga ularning xususiyatlarini chuqurroq o'rganishga yordam berdi. Yunksion model va komponent tahlil, transformatsion tahlil ham o'zbek va ingliz tili o'rtasidagi muhim farqlar va o'xshashliklarni ko'rsatib berish uchun xizmat qildi.

Ikki tildagi bunday qiyoslash uchun manba bo'ladigan mavzular anchagina ko'pdir. Ammo men gapning "yuragi", yadrosi, asosiy qismi kesim bo'lganligi va uning ishtirokisiz tugal bir fikrni ifodalay olmasligimizni nazarda tutgan holda bitiruv malakaviy ishimni aynan kesim oddiygina kesimning o'zini emas balki aralash kesimlarning gaplarda ishlatilishiga qaror qilgandim. Yuqoridagi keltirilgan misollar orqali bu mavzuni to'laroq ochib berishga harakat qildim. Mashhur tilshunos olimlarning bu borada olib borgan ilmiy izlanishlari menga ancha yordam berdi. Men ulardan unumli foydalangan holda o'z ishimga ularning asarlardan olingan kerakli ma'lumotlarni ilova tarzida kiritdim. Bu bobda yana ingliz tilidagi *to be* fe'li va *ot* birikmasidan iborat fe'llar va ularning o'zbek tilida qay tarzda berilishi ham ko'rsatilib o'tildi. O'zbek tilidagi "*bo'lmoq*" fe'li "*hisoblanadi, sanaladi*" kabi fe'llar yoki-*man, san dir* kabi kesimga xoslovchi shakllar ko'pgina hollarda gapda ifodalanmay qoladi ya'ni tushib qoladi. Lekin uning ma'nosi o'zi ifodalanmasa ham bilinib turadi. Bundan tashqari modal ma'noli so'zlar modal fe'llar ularning aralash uyushiq kesimlarni tashkil etish xususiyatlari, sodda va qo'shma fe'llar va ularning uyushib kelish holatlarini tahlil qilib o'tdik. Bir til doirasida sodir bo'ladigan holatlarni to'g'ri tushunib yetish uchun uni albatta, biror til bilan solishtirib o'rganish foydalidir. Shuning uchun ona tilimiz bilan ingliz tilidagi til hodisalarini solishtirish tilni yanada mukammal o'rganishga yordam beradi.

Mazkur bobda mavzuning asosiy qismi ochib berildi. Ingliz tilidagi aralash uyushiq kesimlar ilmiy nazariy jihatdan ko'rib chiqildi.

XULOSA

Men ushbu bitiruv malakaviy ishimni xulosalash borasida shuni ta'kidlashim joizki, men ushbu dolzarb mavzuli ishim bilan tilshunoslik sohasida o'z yechimini kutayotgan ba'zi muammolarning biroz yechimini topishda o'z hissamni qo'shishga harakat qildim. Zero prezidentimiz ta'kidlagandek "ilmiy tadqiqotlarning yo'nalishlarini faqatgina respublika ishlab chiqaruvchi rivojlantirishga bog'liq muammolar doirasi bilan cheklab qo'ymay, Fanlar akademiyasining, ilmiy tadqiqot muassasalari ilmiy izlanishlari, respublika hal etayotgan muammolarni bir qadar aks ettirishini lozimligini ta'kidlab o'tishni xohlardim" deya biz yoshlarga katta ishonch bildirgan.

Mening bitiruv malakaviy ishimning mavzusi "Ingliz va o'zbek tillarda aralash uyushiq kesimlar tipologiyasi" bo'lib, men har ikki tilda mavjud aralash kesimlarni qiyoslab o'rganib chiqdim.

Bu mavzuning dolzarbligi shuni ko'rsatadiki, uyushiq bo'laklar, jumladan uyushiq kesimlar haqida azaldan tilshunos olimlarimiz o'z fikr mulohazalarini bildirib kelganlar. Ammo ular uyushiq bo'laklar haqida umumiy tushuncha, ya'ni ularning o'zaro bog'lanishini, bir sodda gapda ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hollarning uyushib kelishi haqida qisqacha izoh berib o'tishgan xolos. Men ushbu bitiruv malakaviy ishimda kesim aralash uyushiq kesimlar bilan ifodalangan sodda gaplarni ham ingliz, ham o'zbek tillarida qiyoslab o'rganib chiqdim.

Bizga ma'lumki ingliz va o'zbek tillarda kesimning turlari mavjud, ya'ni ular sodda, qo'shma, aralash kesim turlaridir. Shu sababdan bitiruv malakaviy ishimning ilk qismida o'zbek va ingliz tilidagi kesimlar turlari haqidagi nazariy fikrlarni o'rganib, ularni qiyoslab tafovutlarni ko'rib o'tdim. So'ngra ushbu farqlarni yanada yoritish uchun kesimi aralash fe'llar ifodalangan uyushiq kesimli sodda gaplarni komponent va sintaksemalarga ajratib tahlil qilib chiqdim.

Natijada ingliz tilida nafaqat sodda fe'l bilan ifodalangan kesimlargina uyushib kelishi, balki aralash fe'llar bilan ifodalangan kesimlar ham uyushib kelishini guvohi bo'ldim. Masalan ingliz tilida kesimlar modal fe'l va infinitiv bilan ifodalanib, qo'shma modal fe'l kesimni tashkil etsa, aspektni ifodalovchi

fe'llar bilan keladigan fe'ning shaxssiz shakllari infinitiv va gerundiylar, qo'shma aspekt fe'l kesimni tashkil etadi va ushbu pozitsiyalar bir sodda gapda uyushgan holda uchraydi. Masalan: *He can write and read; They began talking and laughing* kabi gaplarda kesimi modal fe'l bilan yoki aspekt fe'l bilan birga infinitiv yoki gerundiy bilan ifodalangan sintaktik birliklar uyushib kelgan hollarni kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari bir sodda gapda uyushib kelayotgan kesimlarning birinchi komponenti sodda fe'l kesim bilan, ikkinchi komponenti esa murakkab qo'shma fe'l kesim bilan ifodalangan holatlarni ham guvohi bo'ldim. *They entered the canteen and begin eating*. Ushbu gapda uyushib kelayotgan kesimlar *entered, began* va *eating* bo'lib, birinchi komponent sodda fe'l kesim bilan, ikkinchi komponenti esa qo'shma aspekt fe'l kesim bilan ifodalangan.

Men ishimning qolgan bo'limlarida kesimi *to be* + *ot* bilan ifodalangan uyushiq kesimli sodda gaplarni ham komponentlarga ajratib tahlil qilib, o'zbek tili bilan qiyoslab talqin qilib chiqdim.

Men har bir uyushiq kesimli gaplarni tahlil qilish jarayonida yangicha yondashuv ya'ni Muxin nazariyasi asosida tahlil qilishga harakat qildim. Har bir gapni, ya'ni o'zbek hamda ingliz tili badiiy adabiyotlardan olingan misollarimni komponent va sintaksemalarga ajratib tahlil qilib, uyushiq bo'laklar orasidagi o'zoro munosabatlarni va gapning boshqa bo'laklar orasidagi o'zoro munosabatlarini ifodalovchi differensial sintaktik semantik belgilarni yoritishga harakat qildim.

Bu menga har bir sintaktik birlikning o'ziga munosib leksik, semantik va morfologik xususiyatlarga ega ekanligini o'rganishga ancha qulaylik tug'diradi. Sababi biz amaliy grammatikada sintaktik tahlil qilganimizda, eganing *ot* yoki *olmosh* bilan ifodalanishi yoki kesimning sodda fe'l, qo'shma fe'l, aralash fe'l bilan ifodalanishi kabi fikrlar bilan cheklanib qolardik, lekin u yerdagi sintaktik birliklarning har birida leksik –semantik belgilar mavjudligi haqida birorta fikrga ega bo'la olmasdik. Biz hozirda juda keng miqyosda rivojlanib borayotgan fan taraqqiyotida, albatta, fanda yangilik kiritib, gaplarni tahlil qilishda, ularning ichki va tashqi strukturalarini, leksik-semantik belgilarini ochib beradigan tarzda tahlil

qilinishiga katta e'tibor berishimiz lozim. Shu sababdan ham menda yadro predikativlik munosabatga juda katta qiziqish uyg'ondi. Shu sababli bitiruv malakaviy ishimni yoritishda komponent va yunksion modellardan unumli foydalandim.

Aslida juda murakkab bo'lib ko'rinayotgan ushbu modellar, deyarli qiyinchilik tug'dirmaydi. Chunki yadro predikativlik deganimizda bu ega va kesim, ya'ni gapning asosi, yadrosi hisoblanadi. Bundan tashqari gapdagi har bir sintaktik birlikning o'ziga xos morfologik belgilari mavjud.

Xullas men ushbu bitiruv malakaviy ishimda faqatgina aralash fe'l kesim bilan ifodalangan uyushiq kesimlarni ya'ni yadro predikativ II o'rnida kelgan unsurlarni ikki tilda qiyoslab o'rganib chiqdim xolos. Men o'ylaymanki, kelajakda gapning boshqa bo'laklarini, ya'ni ham ega, ham kesim uyushib kelish holatlarini ham komponent va sintaksemalarga ajratib tahlil qilib o'tish kabi ulkan ilmiy izlanishlar olib borishga ega bo'lamiz. Men ham kelgusida ushbu ishimni magistirlilik ishimda ham davom ettirishni maqsad qilib qo'ydim.

Men ishimni yozib shunday xulosaga keldimki, ingliz tili grammatikalarida ham yechimini kutayotgan muammolar anchagina va ilmiy izlanishlar qilishga juda dolzarb mavzular mavjud. Birgina ingliz tilidagi modal fe'llarning o'zbek tilida berilishidagi ayrim sintaktik, leksik va morfologik qarama-qarshiliklar, ularning ichki va tashqi strukturalaridagi tafovutlarni yoritish biz kabi yoshlardan katta mas'uliyat va bilim talab qiladi. Ayniqsa har ikki tilda kesimi modal fe'l yoki so'z va infinitiv yoki harakat nomi bilan beriladigan uyushiq gaplarni komponentlarga ajratib tahlil qilish, ularning gapdagi differensial sintaktik-semantik belgilarini yoritish kabi ilmiy izlanishlar men uchun yangilik va qiziqarli mavzu bo'ldi. Shu sabab bu ishimni magistirlilik ishlarimda ham yanada kengroq ochishni maqsad qilib oldim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", PQ-1875 sonli qarori.
2. Karimov I. A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. - Toshkent: O'zbekiston, 1995.-246b.
3. Karimov I. A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX-sessiyasida so'zlagan nutqi-Toshkent: M. To'p T. B -1998.- 331b.
4. Karimov I. A. Yuksak Ma'naviyat –yengilmas kuch. –T: "Ma'naviyat", 2008.- 171b.
5. Karimov I. A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Birinchi chaqiriq XIV sessiyasida so'zlagan nutqidan. T.7.-T: O'zbekiston, 1999.-410b.
6. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. -1997. –34b.
7. Asqarova M. Abdurahmonov M. O'zbek tili grammatikasining praktikumi. – Toshkent: O'qituvchi, 1981. – 284b.
8. Asqarova M. Darslik. Ona tili. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 1997.- 196b.
9. Asqarova M. O'zbek tili grammatikasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1981.- 170b.
10. Axmonova A. O'zbek tilida qo'shma fe'llar. – Toshkent: O'zSSSRFA nashriyoti, 1995.-180b.
11. Azizov. O. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent: O'qituvchi, 1987. – 256b.
12. Ashurov Sh. S. Ingliz va o'zbek tillarida kesim tipologiyasi. Avtoref. Diss. f.f-n Toshkent; 2007.-24b.
13. Bo'ronov J. B. Ingliz va o'zbek tili grammatikasi qiyosiy tipologiyasi. Fan nashri, 1976.–295b.
14. Bo'ronov J. B. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi.- Toshkent; O'qituvchi nashriyoti, 1973. –283b.

15. Bo‘ronov J. B.. The English Grammar.-T: O‘qituvchi, 1974.-256p.
16. Bo‘ronov J. B. va boshqalar. The Grammatical structures of English, Uzbek and Russian. Part I . Tashkent: Uqituvchi, 1986. –310p.
17. Egamberdiyev B. “Hozirgi o‘zbek tilida “ermoq” fe’li”. Qarshi ped. institutining ilmiy asarlari. 17-son 1965.-67b.
18. “Grammar and Composition” Prentice-hall U.S.A., 1987-511p.
19. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -Toshkent: Talqin nashriyoti, 2005.-271b.
20. Koshayeva I. A. The Theory of English Grammar. - Москва: Просвещение, 1982.-336p.
21. Mirtojdiyev M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.- Toshkent: Universitet nashriyoti, 2004.-222b.
22. Omonturdiyev J. O‘zbek tili adabiyoti.- Toshkent: 1960-437b.
23. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent: Universitet nashriyoti, 2006-464b.
24. Rasulov R. Mirazizov A. O‘zbek tili.-Toshkent: Aloqachi, 2005.-228b.
25. Raymond Murphy. English Grammar in use. Cambridge University Press 1988.-327p.
26. Sayfullayeva R. Va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.-415b.
27. Skulte V. Английский язык для детей. Bishkek: 2004.- 364с.
28. Thomson A.J., Martinet A.V. A Practical English Grammar. –Oxford University Press. 1986-384p.
29. Tursunov U., Muxtorov J., Raxmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 1992- 400b.
30. Usmonov S. Hozirgi O‘zbek tilida so‘zning morfologik tuzilishi. TDPIning ilmiy asarlari,42 tom,4-kitob, -Toshkent: 1964.-181b.
31. Yorov B.A. Uyushiq kesim uning zotiy (substansial) tabiati va gapdagi mavqei nomzodlik dissertatsiyasi. Avtoreferati-Toshkent: 2001.-49b.

32. O'zbek tili grammatikasi II tom.-Toshkent O'zb-Fan Akademiyasi: Fan nashriyoti. 1976. -296b.
33. G'oziyev X. Grammatika (sintaksis). – Toshkent: Fan nashriyoti, 1938-281b.
34. G'ulomov A. Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-Toshkent: O'qituvchi, 1964.-256b.
35. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent: Universitet nashriyoti, 2006.-464b.
36. Аракина В. Р. Практическая курс языка. –Москва: Владос, 1999.- 535с.
37. Бархударов Л.С. Штеллинг Д.А. Грамматика английского языка.- М: 1965.-260с.
38. Блох. М.У. A course in Theoretical English Grammar. Москва: Высшая школа, 1983. –380р.
39. Бондаренко О.В. О категориальных значениях видов русского глагола. Семантика и функционирование категории русского языка. Вопросы русской аспектологии. Учен. зап. Тартуского гос. Ун-та. Тарту:-1978. Вып. 310с.
40. Винокурова Л.П. Грамматика английского языка. –Ленинград: Изд-во. Учпедгиз, 1954. –344с.
41. Воронцова Г.Н. Очерки по грамматике английского языка. М: 1960.-248с.
42. Греч Н.И. Практическая русская грамматика-Москва: Висшая школа, 1905.-432с.
43. Жигалдо В.Н., Иванова И.П. Иофик. Л.Л. Современный английский язык. (Теоретический курс грамматики).- Москва: Изд-во Литературы на иностранных языках, 1956. –350с.
44. Ильиш Б.А. The Sructure of Modern English .-Ленинград: 1971.-367р.
45. Каушанская В.В. A Grammar of the English Language. Просвещение - Ленинград: 1973.-320р.

46. Каушанская В.В. English Grammar Exercises. Просвещение- Ленинград: отд,1968.- 362р.
47. Керлин А.А. The Magic Basket and other stories. –Ленинград: Branch, 1963.-176р.
48. Кобрина Н.А. A English Grammar (Syntax). Москва: Просвещение, 1986.-340р.
49. Мухин А.Н. Структура предложение и их моделей.- Ленинград: Наука, 1968.-230с.
50. Сланский В. Грамматика- как она ест и как должна бы быт – СПб:Би: 1888.- 312с.
51. Таншина М.А.б Василевская Н.М. The English Grammar. – Москва: Higher school,1964. –356р.
52. Треч Н. И. Практическая русская грамматика. – Москва:1978-213с.
53. Усманов У.У. Неполные предложения на английском языке. Дисс.... канд. Филолог. Наук.- Киев. 1983. –177с.
54. Широков Ф.В. Структура слова как основа типологического и контрастивного анализа. Вопросы сравнительной типологии, германские, романские, русский и тюркские языки. Тезесы докладов. –Ташкент: 1981.- 271с.

Badiiy adabiyotlar

55. Fitzgerald S. Tender in the night . -Moscow: Raduga Publishers, 1993-400.
56. Freizer Ch. Cold mountain. A Division of random house. Inc.- New York. Copyright, 1997.-452р.
57. Hemingway E. The Farewell to Arms. –Moscow: Progress Publishes,1976.- 321р.
58. Hoddon M. The curious incident. Printed in the U.K. –London, 2003-473р.
59. Krantz J. Princess Daisy. A Bantom Book. Crown Publishers. Inc. –New York:, 1984.-349р.
60. Lee H. To Kill a Mockingbird.-United States: New Yorker, 1960.-562р.
61. Littell Mc. Literature and language 6-gold level. Printed in-USA. 1983.-399р.

62. T. Malik. Shaytanat.4-kitob- Toshkent: 1995-529b.
63. McDonald G. The Marquis secret. –Minnesota: Betheny House Publishers, 1982.-228p.
64. Stone I. The Greek Treasure. –New York: USA: The New American Library. Times Mirror. Doubeday and Company Inc, 1976.-496p.
65. Umarbekov O‘. Fotima va Zuhra. Toshkent: 1986.-431b.

Internet manbalar

www.egramm.su/grammar/predicate

www.nytimes.com.

www.telegraph.co.uk/books/tokillamockingbird.

www.window.edu.ru.